



СБОРНИК

III МЕЖВУЗОВСКОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

**АКТУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ НАУКИ
И ОБЩЕСТВА В ЭПОХУ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ**

**TOPICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF SCIENCE
AND SOCIETY IN THE ERA OF DIGITAL TRANSFORMATION**

**RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA FAN
VA JAMIYAT RIVOJLANISHINING DOLZARB JIHATLARI**

디지털 혁신 시대의 과학과 사회 발전의 현실적 측면

17 апреля 2025

Ташкент



BUCHEON UNIVERSITY IN TASHKENT

MASTER'S PROGRAM



СБОРНИК

III МЕЖВУЗОВСКОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

**АКТУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ НАУКИ И ОБЩЕСТВА
В ЭПОХУ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ**



**TOPICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF SCIENCE
AND SOCIETY IN THE ERA OF DIGITAL TRANSFORMATION**



**RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA FAN VA JAMIYAT
RIVOJLANISHINING DOLZARB JIHATLARI**



디지털 혁신 시대의 과학과 사회 발전의 현실적 측면

17 апреля 2025

Ташкент

ISBN: 978-9910-563-06-5

УДК: 822.252.002.145

ББК: 82.1 (9Rus')-73

П-79

Актуальные аспекты развития науки и общества в эпоху цифровой трансформации // Сборник материалов научно-практической конференции. – Ташкент: ИЛМ-ЗИЁ-ЗАКОВАТ, 2025. – Ч.1. – 240 с.

Ответственный редактор:	Панферова Ирина Виталиевна доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент директор магистратуры Университета Пучон в г. Ташкент
Технический редактор:	Таджимуратова Азиза Садуллаевна главный специалист магистратуры Университета Пучон в г. Ташкент
Рецензенты:	Набиуллина Луиза Махмудовна кандидат педагогических наук, доцент магистратуры Университета Пучон в г. Ташкент Далимова Нилуфар Мелибаевна доктор педагогических наук (DSc), профессор

III Межвузовская научно-практическая конференция «Актуальные аспекты развития науки и общества в эпоху цифровой трансформации», состоявшаяся 17 апреля 2025 года в университете Пучон в г. Ташкент, стала значимой площадкой для обсуждения ключевых тенденций, вызовов и перспектив развития науки, образования и общества в условиях стремительно развивающихся цифровых технологий. В конференции приняли участие более 200 представителей из различных высших учебных заведений, научных организаций и образовательных учреждений. В ходе пленарных и секционных заседаний были заслушаны и обсуждены доклады, затрагивающие широкий спектр проблем цифровизации в науке, образовании, экономике, социальной и гуманитарной сферах.

Представленный сборник научных статей охватывает различные аспекты цифровизации учебного процесса, использования онлайн-платформ, гибридных форм обучения, а также подготовки педагогов к работе в цифровой среде и развития цифровой грамотности обучающихся. Предлагаются новые подходы к организации научных исследований с применением цифровых инструментов, развитию научной инфраструктуры, рассмотрению вопросов открытой науки, использованию искусственного интеллекта и больших данных в научной деятельности. Рассматриваются социальные, культурные и психологические аспекты цифровизации, влияния технологий на межличностные коммуникации, идентичность, а также вопросы цифрового неравенства и этики в цифровой среде. Отдельно подчеркнута междисциплинарность большинства работ, что свидетельствует о расширении горизонтов научного поиска и стремлении молодых исследователей к комплексному осмыслению процессов цифровой трансформации.

Сборник материалов конференции рекомендован к публикации Учебно-методическим Советом Университета Пучон в г. Ташкент 10 апреля 2024 года (Протокол № 2 от 10.04.2025 г.).

© “ILM-ZIYO-ZAKOVAT” nashriyoti
© Bucheon University in Tashkent

ВСТУПИТЕЛЬНОЕ СЛОВО

Мы рады приветствовать наших почетных партнеров, уважаемых гостей, спикеров и участников III Межвузовской научно-практической конференции «Актуальные аспекты развития науки и общества в эпоху цифровой трансформации»!

Один из глобальных трендов последних лет – ускоренная цифровизация различных областей деятельности, включая и сферу науки. В Узбекистане также активно разрабатываются и внедряются государственные информационные системы, в университетах и научных центрах развиваются цифровые сервисы, исследовательский процесс частично переносится в виртуальную среду.

Нормативные требования о цифровой трансформации и стратегические направления в этой области раскрыты в Указе Президента Республики Узбекистан от 05.10.2020 г. № УП-6079 «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по ее эффективной реализации».

В рамках стратегии цифровой трансформации планируется выработка единого подхода к цифровой трансформации образования и науки, который будет транслироваться в вузы, создание ряда сервисов для всех сторон деятельности образовательных и научных организаций.

В Узбекистане планируется запуск в 2025 году цифровой экосистемы в сфере высшего и профессионального образования, науки и инноваций. Одной из основных задач для достижения данной цели являются межсистемные интеграции по организации взаимного обмена информацией между информационными системами.

Наука, как и многие другие сферы деятельности общества, претерпевает цифровую трансформацию, что приводит к активным дискуссиям среди ученых и исследователей о последствиях данного процесса. Цифровая трансформация научной деятельности происходит в нескольких направлениях. Интернет

облегчил поиск, сбор и анализ научных источников в исследуемой области, позволив ученым со всего мира увидеть актуальные вопросы исследования и их решения. Научные конференции объединяют ученых из разных стран для обсуждения важных вопросов, вследствие чему создаются новые научные коллаборации.

Организация и проведение III Межвузовской научно-практической конференции “Актуальные аспекты развития науки и общества в эпоху цифровой трансформации” предоставляет платформу ученым и молодым исследователям высказать свои взгляды на данные противоречия и проблемы. Желаю всем удачи и плодотворной работы!

Ректор университета Пучон в городе Ташкент А.В. Шин

UDK 37.091.3:005.336.2

INNOVATSION TA'LIM MUHITINI RIVOJLANTIRISHDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINING BOSHQARUV KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Avezova Rohila Ruzimboyevna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti i
"Pedagogika va psixologiya" kafedrasida dotsent

Annotatsiya. Innovatsion ta'lim muhitini rivojlantirishda bo'lajak boshlang'ich sinflar o'qituvchilarining boshqaruv kompetentligini takomillashtirish bugungi kunda muhim bo'lmoqda. Maqolada boshqaruv kompetentligini takomillashtirish yo'llari va aynan boshlang'ich sinflarda ulardan foydalanish bo'yicha tahlillari keltirilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinflar o'qituvchisi, tashkiliy boshqaruv, o'quv boshqaruvi, ijtimoiy boshqaruv, korporativ boshqaruv, huquqiy boshqaruv, innovatsion boshqaruv.

Annotation. Improving the managerial competence of future primary school teachers in the development of an innovative educational environment is becoming increasingly important today. The article presents an analysis of ways to improve managerial competence and their use in primary education.

Key words: primary school teacher, organizational management, educational management, social management, legal management, innovative management.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) – 2030 yilgacha global miqyosda amalga oshirilishi kerak bo'lgan 17 ta muhim maqsadlari belgilandi. World Economic Forum rasmiy saytida 2030 yilgacha erishilishi lozim bo'lgan 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM)ning **to'rtinchisi, ya'ni sifatli** ta'limga erishish uchun kichik yoshdagi bolalarni o'qitishdan tortib, kattalarning savodxonligigacha bo'lgan holatlar haqida batafsil ma'lumot berildi [1]. Bu maqsadni ro'yobga chiqarishda bilimli, salohiyatli, ijodkor va boshqaruvchi kadrlarni tayyorlash orqali amalga oshirish muhimligi tushunishimiz darkor.

Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda [2]. Ta'lim tizimida o'qituvchi bosh rolni bajaruvchi sifatida o'quvchilar bilim olishi va o'quv motining mustahkam bo'lishida uning shijoati va kompetentligi asosiy ahamiyatga ega. O'quvchilarning bilim olishlariga yo'naltirishda, tashkiliy vazifalarni bajarishda boshqaruvchi sifatida doimiy ravishda liderlik sifatlarini takomillashtirib borishi lozim.

XI asrning yirik allomalaridan yana birlari Yusuf Xos Xojib o'zining «Qutadg'u bilig», ya'ni «Saodatga boshlovchi bilim» asarida boshqaruvchi, ya'ni podshoh adolatli xalqqa yordam beruvchi bo'lishi lozimligi g'oyasi ilgari suriladi. Uning o'git va nasihatlari hokimlarga qaratilgan bo'lib, boshqaruvchi rahbar tevaragida tabiatan yaxshi niyatli, yuksak axloq sohibi bo'lgan kishilar bo'lgandagina, u to'g'ri ishlar qilishi, to'g'ri farmonlar chiqarishi mumkin, shundagina mamlakat farovon bo'lib ravnaq topadi. Yusuf Xos Xojibning fikricha: “Kishi qanchalik yuqori martabaga erishmasin, u baribir kamtar bo'lib qolishi”[3] - ta'kidlaganlar. Shunday ekan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshqaruvchi sifatida axloqiy sifatlarga ega bo'lishi muhim jihatdir.

L.M Bazavluskayaning tadqiqotda ijtimoiy sohadagi tashkilotlar va muassasalarda xodimlarni boshqarishning asosiy muammolari ilmiy nuqtai nazardan yoritilgan. Xodimlarni boshqarish tamoyillari, usullari, xodimlarning xulq-atvorini rag'batlantirish va mehnat faoliyatini qo'llab-quvvatlash asoslari, shuningdek, mehnat nizolarining turlari va ularni hal qilish tartibi aniq tushuntirilgan [4]. Shuningdek, boshqaruv jarayonlarining mohiyati, tashkiliy tuzilma, boshqaruv xodimlarining majburiyatlari, rejalashtirish va prognozlash asoslari, xodimlar va mijozlar bilan munosabatlar o'rnatish, marketing hamda zamonaviy texnologiyalar va aloqa vositalarining o'rni ko'rsatib o'tilgan [5].

Adabiyotlarni va tadqiqotlarni tahlil qilshi orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini boshqaruv faoliyatiga tayyorlash bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi quyidagi boshqaruv turlarini yaxshi bilishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining *huquqiy boshqaruvi* - bu o'qituvchining o'quvchilar, ularning ota-onalari, hamda maktab ma'muriyati, hamkasblari bilan o'zaro munosabatlar va ta'lim jarayonini huquqiy asosda boshqarishidir. Bu boshqaruvda o'qituvchi o'zining huquqiy majburiyatlarini bilishi va o'quvchilarga huquqiy bilimlarni o'rgatishi, burchni, bag'rikenglikni, ma'suliyatni, ular bilan adolatli, qonuniy va ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli munosabatlarni o'rnatishni bilishi

muhimdir. Shuningdek, o'qituvchi sinfdagi intizomni, o'quvchilarning huquqlarini himoya qilishni va ularning javobgarliklarini boshqarishda qonuniy yo'llarni qo'llashi lozim.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarga siyosiy jarayonlar - saylovlar, parlament faoliyati, qonun chiqarish jarayonlari kabi masalalarni tushuntiradi. Bu orqali o'quvchilar jamiyatdagi siyosiy tizimning qanday ishlashini tushunishadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi *innovatsiyon boshqaruvni* bilishi muhimdir. Bu esa unda yangi g'oyalar, texnologiyalarni ta'lim- tarbiya jarayoniga tadbiiq qilish orqali sifat samaradorlikka erishadi. Innovatsiyalar orqali darslarni sifati yaxshilashga, sinfdan tashqari faoliyatlarni samarali tashkil qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratiladi. O'qituvchi onlayn ta'lim platformalaridan foydalanishni, interaktiv ta'lim vositalari (mobil ilovalar, o'quv dasturlari) bilan ishlashni, o'quvchilarga texnologiyalarni o'rgatishni bilishi darkor. O'qituvchi innovatsiyon yondashuvlarni ishlab chiqib, uni amaliyotga tadbiiq qilishi juda ahamiyatlidir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi *ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishi* ahamiyatlidir. Bu boshqaruv o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga yordam berishni maqsad qiladi. Nafaqat o'quvchi balki uning ota-onasi hamkorlik yo'llarini mustahkamlashga xizmat qiladi. O'qituvchi barcha me'yoriy hujjatlarni bilishi lozim. Darslarni ilmiy-metodik va amaliy jihatdan tashkil qilishi darkor. O'quv jarayonini monitoring va baholashi muhimdir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining *jamoani boshqarishi* (personal boshqaruv)- bu o'qituvchining o'quvchilarni bir butun guruh sifatida boshqarishi, ularning o'zaro munosabatlarini tashkil etishi, sinfdagi ijtimoiy va pedagogik jarayonlarni samarali olib borishi hamda sinfdagi sog'lom muhitni tashkil qilishi muhimdir. O'qituvchi nafaqat o'quvchilarga bilim beruvchi, balki ular orasida hamkorlik, hurmat, tartib-intizom va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantiruvchi rahbardir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi *ijtimoiy boshqaruv* va uning tarkibiy qismlarini bilim amaliyotga qo'llay olishi ahamiyatlidir. Bu jarayonda o'quvchilarga ijtimoiy qadriyatlarni, mas'uliyatni, do'stlikni, o'zaro hamkorlikni o'rgatish. Boshlang'ich sinf

o'qituvchisi o'quvchilarga o'zaro yordam berishni do'st-birodar, guruhlarda birgalikda ishlashni, bir-birini qo'llab-quvvatlashni targ'ib qilish muhimdir. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi jamoasidagi muhitni ijtimoiy jihatdan sog'lom va konstruktiv qilib tashkili etishi kerak. Bu muhitda o'quvchilar o'zlarini xavfsiz his qilishadi, bir-birini hurmat qiladigan va o'rganishga tayyor bo'ladigan jamoani shakllanadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi *vaqtni boshqarishi* – bu vaqtni to'g'ri taqsimlashi, har bir jarayonni samarali tashkil etishi, vaqtni kuzatishi, tahlil va o'zgarishlarni inobatga olgan holda amalga oshirishi muhim jihatdir.

Alen Makkenzit “Band bo'lishdan oson narsa yo'q, unumli bo'lishdan qiyini yo'q” [6] – vaqtni boshqarishga ta'rif berganlar. Bunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari turli xil faoliyatlarni o'z ichiga olgan darslar tashkil etishi, dars davomida vaqtni muntazam ravishda tekshirib turishi, agar kerak bo'lsa, faoliyatlarni qisqartirish yoki uzaytirishi, har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olib, ularni qo'llab-quvvatlash uchun vaqtni qanday boshqarishidir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining *kreativ boshqaruvi* -bu ijodkorlik va yangi, noodatiy fikrlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Rahbarlar va o'qituvchilar o'zaro ijodiy yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi va yangi g'oyalarni rag'batlantiradi. O'qituvchi o'quvchilarga darsda va darsdan tashqari faoliyatlarda yangi kreativ metodlar qo'llashi, yangi mavzularni ijodiy tarzda o'rganish imkoniyatlarini beradi. Har qanday muammoni ijodiy va ijobiy yechimga kelishni o'rganadilar. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirish modelida emotsiyonal intellekt- EI (Emotional Intelligence), aqliy intellekt- IQ (Intelligence Quotient), ma'naviy intellekt- SI (Spiritual Intelligence) va kasbiy intellekt - PI (Professional Intelligence) sifatlarni shakllantirib borish asosida takomillashtirildi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining boshqaruv kompetensiyasini takomillashtirishda sinf ichidagi munosabatlarni boshqarishni, huquqiy, siyosiy, ijtimoiy, innovatsiyon, vaqtni boshqarishni bilishi hamda amaliyotga tadbiiq qila olishi bilan ahamiyatlidir. Bu yondashuvlarni biz o'zimiz ishlab chiqqan dastur asosida

ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlar, samarali pedagogik amaliyotlarni tashkil qilish hamda mustaqil ta'limni tashkil qilish uchun onlayn platformalardan samarali foydalanib, talabalarimizni boshqaruv faoliyatiga tayyorlashga xizmat qildik.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Muslimov, N. A., Usmonboeva, M., Mirsolieva, M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent, 2016. – 41 b.
2. Hayitov, O. E. Rahbar psixologik kompetentligini modellashtirishning nazariy-ilmiy asoslari (oliy ta'lim muassasalari o'rta bo'g'in rahbarlari misolida): monografiya. – Toshkent: UMID DESIGN, 2021. – 8 b.
3. Базавлуская, Л. М. Управление персоналом: учебное пособие. – Челябинск: Изд-во ЗАО «Библиотека А. Миллера», 2023. – 167 с.
4. Avezova, R. R. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida liderlik ko'nikmalarini shakllantirish // Zamonaviy ta'lim (Sovremennoe obrazovanie). – 2024. – №10 (143). – B. 39.
5. Razzoqov, Sh. Rahbarlik san'ati. – Toshkent: Lesson Press, 2017. – 47 b.
6. [Elektron resurs] <https://kun.uz/21712151>

UDK 37.02:004

CHALLENGES IN IMPLEMENTING INNOVATIVE TECHNOLOGIES AS A MANAGEMENT RESOURCE IN THE ACTIVITY OF A PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION

Akbarova M. S., Master's Student,
Puchon University in Tashkent

Nabiulina L. M., PhD.
in Pedagogical Sciences, Associate Professor,
Puchon University in Tashkent

Abstract. The article proposes the introduction of new innovation technologies in the management of preschool educational organizations (PEO). The main areas of informatization are analyzed, including administrative, pedagogical, financial, economic and organizational management. As part of the study, a comparative analysis of the use of IT in state and modern preschool institutions was conducted using the example of the Institute for Retraining and Advanced Training of Directors of Preschool Educational Institutions and the Erudite International Kindergarten. A pedagogical experiment is described, including surveys of directors and educators, aimed at identifying levels of awareness and promoting the introduction of technologies. The results of the data analysis are presented, key problems are identified and recommendations are given to improve the efficiency of using information technologies in the management of preschool educational institutions.

Keywords: innovation technologies, preschool management, digitalization of PEOs, pedagogical experiment, preschool education, survey.

The reforms of preschool education involve the implementation of innovations

in the management of preschool educational organizations (PEOs). To replace the outdated management system with a flexible and efficient model suited to modern conditions, new approaches are required to significantly enhance institutional development. One of the most effective innovations today is the implementation of information technology (IT).

Modern education is a key integral part of social progress and an indispensable attribute of educational development is the innovative component [1].

Referencing to Kuznetsova Y.B. [2], the main management functions in PEOs consist of the following components:

1. *Administrative management includes:*

- *planning*: development of strategic and operational plans, including curricula, activities, and events.

- *organizational structure*: staff time table, delegation of responsibilities, and maintaining optimal working conditions.

2. *Pedagogical Management includes:*

- *curriculum development*: educational program design and approval within national standards.

- *analysis and monitoring*: systematic assessment of teaching process and children's achievements; monitoring the effectiveness of the educational process.

3. *Financial-Economic Management includes:*

- *budgeting*: formation and distribution of the institution's budget; expense planning for educational materials, equipment, repairs and other needs.

- *accounting and reporting*: accounting, preparation of financial statements, control over the targeted use of budget funds;

4. *Organizational Management includes:*

- *interaction with parents* - organization of parent meetings, consultations, individual meetings; conducting surveys and questionnaires to take into account the opinions of parents

- *interaction with external organizations* - cooperation with educational authorities, medical institutions, cultural and sports organizations

High competition sets the task for the management of the preschool educational institution to create optimal conditions for the manifestation of a high culture of innovative pedagogical activity, possessing competence, ready to use and create innovations, the ability to conduct experimental work [3].

The main goal of an innovative manager is the implementation and use of information technology as a management resource in management process. In order to assess state of arts and investigate what challenges exists in implementation of innovative technologies in management process, followed study was applied in two institutions:

The first institution is “The Institute for Retraining and Advanced Training of Directors and Specialists of Preschool Education Organizations” – Uzbekistan public organization for professional development in preschool education.

Second institution is non-governmental preschool educational institution “Erudite International” – private preschool educational institution focused on the use of innovative technologies and approaches in management and education.

The choice of these entities was determined by their differences in the level of equipment, approaches to educational process and categories of specialists. This allowed to conduct a comparative analysis, identify strengths and weaknesses in the use of technology and develop recommendations applicable to both public and private institutions.

At the first stage of the experiment two types of surveys were conducted to different target audiences.

1. Survey for heads of PEOs with the purpose to determine the level of awareness of managers about innovative technologies used in the management of preschool educational institutions, as well as their implementation in the management process.

2. Survey of preschool teachers with the main objective to study the level of pedagogical activity of educators, assess their readiness for modern innovative approaches, and determine demand for professional development and training.

The total number of respondents was 127 and, 82 of them were in leadership positions while the remaining part (45) were preschool educators. To ensure accessibility and ease of use a Google Forms survey was developed in Uzbek and Russian language. Bi-lingual survey allowed to cover wider audience by minimizing language barriers and improving response accuracy.

The executive questionnaire included 14 questions designed to cover key aspects of the topic as effectively as possible while being quick to complete. The questionnaire included closed-ended questions with multiple-choice answers, open-ended questions for more detailed comments, and a special "Add Your Suggestion" field where respondents could write additional opinion and recommendations.

During the first stage of the study, an opportunity was provided to conduct a face-to-face interview with the managers, where the survey results were discussed. This allowed to identify the problem in detail and receive feedback, which would not have been possible if we had limited ourselves to written form.

The study covered heads of preschool educational institutions from different regions of the country. This allowed us to identify not only common problems, but also regional characteristics, such as: lack of access to high-speed Internet, differences in the level of technical equipment of institutions, lack of support from local authorities.

The "Add your suggestion" field proved to be especially important during the survey, as it allowed managers not only to answer the questions, but also to share their opinions on the current situation in the preschool education system. Many respondents indicated the need to improve the qualifications of teachers in the field of working with innovative technologies, finance the purchase of modern equipment and strengthen the network infrastructure in educational institutions. These suggestions made it possible to better understand the needs of respondents and use them to formulate recommendations and proposals for improving the situation.

A particularly insightful aspect was the interviews with educators at “Erudite International” where investigated followed:

- young generation teachers actively support innovation in educational process. One of them noted “-innovations make lessons more interactive for children”. They create new opportunities, however, without training we struggle to implement them effectively”.
- experienced educators expressed concerns that the introduction of technology could hinder the learning process and complicate their work, and in addition some of them expressed preference to work using traditional methods, as they are time-tested.

In conclusion, the key findings of this study are recommendations on how to introduce innovative technologies in preschool management process listed below:

- expand IT training for directors and educators;
- improve technological equipment of PEOs;
- nationwide digitalization framework for preschool education should be studied in deep;
- facilitate knowledge-sharing networking between private and public institutions to reduce innovation appliance gap.

Implementation of these measures would let modern technological innovations bond of with preschool education, enhance both administrative efficiency and educational quality.

References

1. Багаутдинова С. Ф. Инновационная деятельность в дошкольных образовательных учреждениях: метод. рекомендации. — Магнитогорск: МаГУ, 2001. — 150 с.
2. Кузнецова Е. Б. Условия внедрения инноваций в управленческую деятельность руководителя дошкольного образовательного учреждения: дис. ... канд. пед. наук. — М., 2009. — 180 с. — URL: <https://www.dissercat.com/content/usloviya-vnedreniya-innovatsii-v-upravlencheskuyu-deyatelnost-rukovoditelya-doshkolnogo-obra> (дата обращения: 26.03.2025).
3. Ешкубронов А. А. Инновацион подход оркали мактабгача таълим муассасалари раҳбарларининг рақобатбардошлигини ошириш // ОАК Ўзбекистон. — 2023. — № 3. — С. 45–50. — URL: <https://oak.uz/userfiles/files/2023-3-son.pdf> (дата обращения: 26.03.2025).

4. Рубленко Т. В. Инновационные технологии в управлении развитием дошкольного образования в России // Молодой ученый. — 2022. — № 2 (397). — С. 220–222. — URL: <https://moluch.ru/archive/397/87878/> (дата обращения: 26.03.2025).
5. Черезова Л. Б., Мухатова Г. А. Применение инновационных технологий в управлении дошкольными образовательными организациями // Молодой ученый. — 2022. — № 20 (415). — С. 625–628.

UDK 372.367

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARIDA 5-6 YOSHLI BOLALARNI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASH TEXNOLOGIYALARI

Ataniyazova O'R., magistrant,
Toshkent shahridagi Puchon universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-6 yoshli bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning zamonaviy texnologiyalari o'rganilgan. Milliy qadriyatlar, an'analarga hurmat, madaniy merosni saqlash kabi tushunchalar bolalar ongiga yoshligidan singdirilishi zarur. Maqolada tarbiya jarayonida milliy qadriyatlar asosida ishlatiladigan metodlar, o'quv jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar, shuningdek, pedagogik usullarni tahlil qilish orqali bolalar ongini shakllantirishning muhim ahamiyati ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Milliy qadriyatlar, maktabgacha ta'lim, 5-6 yosh, tarbiyalash texnologiyalari, madaniy meros, pedagogik usullar, o'quv jarayoni, tarbiyaviy ishlar.

Abstract. In this article, modern technologies of education of 5-6-year-old children based on national values are studied in preschool educational institutions. Concepts such as national values, respect for traditions, preservation of cultural heritage should be inculcated in children's minds from a young age. The article shows the importance of the formation of children's consciousness by analyzing the methods used in the educational process based on national values, technologies used in the educational process, as well as pedagogical methods.

Key words: National values, preschool education, 5-6 years old, educational technologies, cultural heritage, pedagogical methods, educational process, educational work.

Maktabgacha ta'lim tizimi bolalar tarbiyasining asosiy bosqichini tashkil etadi. Ushbu bosqichda bola faqat intellektual emas, balki milliy madaniyat, an'analar va qadriyatlar asosida ham tarbiyalanadi. Milliy qadriyatlar bolalar tarbiyasida muhim o'rin tutadi, chunki ular shaxsning o'zligiga, madaniyatga va tarixga bo'lgan hurmatini shakllantiradi. 5-6 yoshdagi bolalar uchun tarbiya jarayonida milliy qadriyatlar asosida pedagogik texnologiyalardan foydalanish juda samarali natijalar beradi. Ushbu maqolada milliy qadriyatlar asosida bolalarni tarbiyalashning texnologiyalari va metodlari haqida to'xtalamiz. Shuningdek, o'quv jarayonida bolalarga milliy qadriyatlarni singdirishning samarali usullarini tahlil qilamiz. Milliy qadriyatlar

xalqning madaniy, ma'naviy, axloqiy, tarixiy an'analari bo'lib, ular turli avlodlarga o'tib keladi. Bolalarga yoshligidan milliy qadriyatlarni o'rgatish, ularga o'z xalqining madaniy merosi, milliy o'ziga xosliklarini tushuntirish, bu qadriyatlarni ularga singdirish juda muhimdir. Bu, albatta, bolalarda vatanparvarlik, o'z millatiga bo'lgan muhabbatni oshiradi.

Milliy qadriyatlar - bu har bir xalqning tarixiy, madaniy, ma'naviy, axloqiy an'analari, urf-odatlarini, diniy va milliy tasavvurlari hamda o'ziga xos hayot tarzini belgilovchi o'ziga xos unsurlar to'plamidir. Milliy qadriyatlar xalqning ma'naviy tuzilmasining asosini tashkil etadi, shuningdek, har bir avlodga o'z millatining tarixiy merosini, madaniy tajribasini va o'ziga xosligini o'rgatish maqsadida yetkaziladi. Milliy qadriyatlarning ahamiyati faqat bir xalqning o'ziga xosligini anglatibgina qolmay, balki uning boshqa xalqlar bilan muloqoti, hamkorligi va rivojlanishi uchun ham muhimdir. Milliy qadriyatlarning jamiyatda o'rin tutishi va insonning shaxsiy rivojlanishidagi roli juda katta. Bular bolalar ongiga yoshligidan singdirilishi zarur. Chunki bolalar o'z millatining qadriyatlarini o'zlashtirgan holda kelajakda o'zini jamiyatda to'g'ri tutishga, axloqiy qoidalarga amal qilishga, o'z xalqining tarixini va madaniyatini hurmat qilishga o'rgatadilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bu qadriyatlarni tarbiyaviy ishlar orqali bolalar ongiga singdirish, ularni vatanparvarlik, o'z xalqiga hurmat va sevgini rivojlantirishga yordam beradi. Milliy qadriyatlar xalqning madaniy merosining ajralmas qismi bo'lib, ular o'tmish avlodlarning tajribalarini va bilimlarini o'z ichiga oladi [1]. Ushbu qadriyatlar bolalarga tarbiya berish jarayonida o'rgatilishi kerak, chunki ular o'z xalqining tarixiga, urf-odatlarini va an'analari bilan tanishib, o'zligini topishadi. Milliy qadriyatlar bolalarda vatanparvarlikni, o'z xalqiga bo'lgan sevgini, tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxslar va voqealar bilan bog'liq bilimlarni rivojlantiradi. Bu, o'z navbatida, jamiyatda barqarorlik va tinchlikni ta'minlashda yordam beradi. Milliy qadriyatlar bolalar ongiga axloqiy qadriyatlarni singdirishning samarali vositasi hisoblanadi. Masalan, o'zaro hurmat, adolat, insof va mehnatsevarlik kabi qadriyatlar, o'z vaqtida tarbiyalangan bolada jamiyatda yaxshi inson sifatida shakllanadi.

Milliy qadriyatlarni o'rgatish, faqat o'z millatiga bo'lgan hurmatni oshirish emas, balki boshqa madaniyatlarni ham hurmat qilishni o'rgatadi. Bu, o'z navbatida, jamiyatdagi multikulturalizm va uyg'unlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Milliy qadriyatlar, shaxsning dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bolalar milliy qadriyatlar asosida tarbiya olganlarida, ular o'zini va atrof-muhitini yaxshiroq tushunadi, o'zining madaniy merosiga bo'lgan hurmatni oshiradi va mustahkam ma'naviy asoslarga ega bo'ladi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarni o'rgatish va ularni singdirish, nafaqat shaxsiy, balki jamiyatning kelajakdagi taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bu qadriyatlar bolalar uchun turli o'yinlar, hikoyalar, qo'shiqlar va xalq an'analari yordamida faol o'rgatilishi kerak. Bunda pedagogik yondashuvlar va texnologiyalarni to'g'ri tanlash, bolalarni milliy qadriyatlar bilan tanishtirishda samarali bo'ladi. 5-6 yoshdagi bolalar uchun tarbiya texnologiyalari. 5-6 yoshdagi bolalar psixologik jihatdan yangi bilimlarni qabul qilishga tayyor bo'lishadi. Shu bois, ularga milliy qadriyatlarni o'rgatishda turli pedagogik texnologiyalar qo'llanilishi zarur. Interfaol metodlar: bolalarni faol jalb qilish, o'yin, muzey ekskursiyalari, xalq ertaklarini o'qish va so'zlab berish kabi metodlar milliy qadriyatlarni bolalar ongiga singdirishda samarali. Rasmi va amaliy faoliyatlar: Milliy taomlar, xalq hunarmandchiligi, urf-odatlar haqida bilish, milliy musiqani tinglash va raqslar bilan tanishish. Kuchli didaktik vositalar: Milliy tarbiya bo'yicha mo'ljallangan didaktik o'yinlar, bolalarga milliy qadriyatlarni o'rgatishda muhim vositadir [2].

1. Interaktiv ta'lim ilovalari. Ta'lim ilovalari (masalan, matematikani o'rgatuvchi, ranglarni o'rganishga yordam beruvchi, so'z boyligini oshirishga qaratilgan ilovalar) bolalarni o'qish, yozish va hisoblashga qiziqtiradi. Bu ilovalar odatda o'yin shaklida bo'lib, bolalar uchun qiziqarli va o'rganishni osonlashtiradi. Audiokitoblar va multimedialar. Audiokitoblar bolalarga hikoyalarni tinglash orqali so'zlashuv va eshitish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, multimedialar yordamida o'quv mashg'ulotlarini vizual va audial tarzda amalga oshirish, bolalarning e'tiborini uzoqroq saqlashga yordam beradi. Kompaniya va

o'yinchoqlar yordamida ta'lim. Bolalar uchun mo'ljallangan robotlar yoki aqlli o'yinchoqlar (masalan, til o'rganishga yordam beruvchi o'yinchoqlar) ularni yangi narsalarni o'rganishga undaydi. Bu o'yinchoqlar bolalarga yengil, interaktiv va qiziqarli tarzda bilim beradi. Raqamli o'yinlar va platformalar. Onlayn o'yinlar orqali bolalar o'yinlarni o'ynash orqali mantiqiy fikrlash, matematika va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishadi. Bu o'yinlar o'yin jarayonida o'rganishni qo'llab-quvvatlaydi va bolalarga motivatsiya beradi. Ekran orqali bilim olish (video darslar) 5-6 yoshdagi bolalar uchun qisqa video darslar va animatsiyalar tayyorlanishi mumkin. Bu video darslar bolalarga yangi bilimlarni o'rgatish uchun o'yinli va rang-barang shakllarda tasvirlanadi, bu esa ularga o'rganishni osonlashtiradi. Onlayn ta'lim platformalari. Ta'lim platformalarida bolalar uchun maxsus kurslar, darslar va mashqlar mavjud. Bu platformalar yordamida bolalar turli mavzularni o'rganishi mumkin. Ba'zi platformalar bolalar uchun gamifikatsiya qilish (o'yinlash orqali o'rganish) imkoniyatlarini taklif etadi. Tarbiya texnologiyalarini qo'llashda bolalarning ijtimoiy faoliyatini kamaytirmaslik, ular bilan yuzma-yuz muloqot va faoliyatni o'zgartirmaslik muhim [3]. Texnologiyalarni tarbiya jarayoniga qo'llashda muvozanatni saqlash kerak. Tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarni singdirish usullari.

Milliy qadriyatlarni o'rgatishda foydalaniladigan usullar bir nechta bo'lishi mumkin: Ko'rgazmali metodlar: rasm, videolar va o'yin yordamida milliy madaniyat haqida tushunchalar berish. Ijodiy faoliyat: bolalarni o'z fikrlarini ifodalashga, milliy mavzularda rasm chizishga, hikoyalar yaratishga undash. O'zaro ta'sir va muloqot: bolalar o'rtasida madaniy qadriyatlar haqida suhbatlar tashkil etish, tarixiy shaxslar va ularning hayotiga oid masalalarni muhokama qilish. Tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarni singdirish bolalarga o'z xalqining madaniyati, an'analari va urf-odatlarini haqida chuqur bilim berish orqali ularni ota-onalar, jamiyat va mamlakat uchun foydali, axloqiy jihatdan sog'lom va ma'naviy barkamol shaxslar sifatida tarbiyalashga yordam beradi. Milliy qadriyatlarni bolalarga singdirishning ba'zi usullari quyidagilardir: Milliy adabiyot va folklorini o'rgatish [4]. Bolalarni xalq ertaklari, afsonalar, maqollar va iboralari bilan tanishtirish milliy qadriyatlarni singdirishning

samarali usullaridan biridir. Ushbu asarlar orqali bolalar o'zining milliy kimligini tushunib, yaxshilik va yomonlik, adolat va beadolatlik haqidagi qadriyatlarni o'rganadilar. Mashhur yozuvchilarning asarlari va xalq musiqa asarlari ham bolalarga milliy madaniyatni chuqurroq anglash imkonini beradi. Milliy urf-odat va an'analar bilan tanishtirish. Bayramlar, marosimlar, oilaviy an'analar (masalan, milliy taomlar tayyorlash, bayram dasturxonlari va boshqalar) bolalarga milliy qadriyatlarni o'rgatishning muhim vositalaridir. Bolalar milliy bayramlar, masalan, Navro'z, Mustaqillik kuni, Ramazon hayiti kabi kunlarda oilaviy yoki jamoat yig'inlarida qatnashib, ularga nisbatan hurmatni o'rganadilar. Milliy musiqani o'rgatish, Milliy musiqa va raks san'ati orqali bolalar o'z xalqining madaniyatiga yaqinlashadi. Milliy qo'shiqlar, musiqiy asboblari va ularni ijro etishning nozik tomonlari bolalarga o'zining madaniy merosiga hurmatni o'rgatadi. Folk musiqa va mushtariy rakslar bolalarning musiqa va san'atchilikni sevishlariga sabab bo'lib, milliy qadriyatlar bilan bog'liq his-tuyg'ularni rivojlantiradi. Milliy kiyim va bezaklarni tanishtirish Milliy kiyim (masalan, kompiri, chapan, alacha) va bezaklar bolalarga o'z xalqining estetik va madaniy qadriyatlarini tanitish uchun foydalidir. O'zbek xalqining kiyim va bezaklarini, milliy naqshlarni bolalarga o'rgatish ularning tarixiy va madaniy an'alariga nisbatan hurmatni shakllantiradi. Milliy o'yinlar va sportni qo'llash. Milliy o'yinlar (masalan, kurash, tog' urish, ko'pkari, shashka va boshqalar) bolalar uchun nafaqat qiziqarli, balki ularni jismoniy rivojlanishiga ham yordam beradi. Shu bilan birga, bu o'yinlar orqali bolalar xalqining urf-odatlarini va an'alarini bilan tanishadilar[5].

Oilaviy va jamiyatdagi qadriyatlarni namoyish etish. Oilaviy qadriyatlar bolalar tarbiyasida asosiy o'rinda turadi. Ota-onalar va katta avlod o'zining o'zaro hurmat, mehr-oqibat, mehnatsevarlik va samimiylik kabi fazilatlarni bolalarga ko'rsatishlari kerak. Bolalar oilada hurmat, mehr, adolat kabi qadriyatlarni o'rganadilar va o'zlarining kelajakdagi hayotida qo'llaydilar. Tarixiy shaxslar va milliy qahramonlar haqida bolalarga hikoya qilish, ularning mehnatlari va muvaffaqiyatlarini o'rganish orqali milliy faxr va o'z tarixiga nisbatan hurmat uyg'otish mumkin. Tarixiy

yodgorliklar, mavzalar, muzeylarni ko'rsatish ham bolalarda milliy qadriyatlarni singdirishning samarali usullaridan biridir. Tabiat va muhabbatni o'rgatish. Milliy qadriyatlarning bir qismi ham tabiatga muhabbat va unga nisbatan mas'uliyatdir. Bolalar o'z xalqining tabiatga bo'lgan aloqasini, shuningdek, uning saqlanishi uchun qilinadigan ishlarni o'rganishlari kerak. Bu orqali ekologik qadriyatlar ham singdirilishi mumkin. Milliy tillarni rivojlantirish. Bolalarga ona tilida suhbatlashish, hikoyalar o'qish va ertaklarni tinglash orqali milliy tilni sevdirish, uning go'zalligini tushuntirish, tilga nisbatan g'ururni shakllantirish ham juda muhimdir.

Milliy qadriyatlar asosida tarbiya maktabgacha ta'lim tizimida juda muhim ahamiyatga ega. 5-6 yoshli bolalar tarbiyasida bu qadriyatlarni o'rgatish uchun samarali pedagogik texnologiyalarni qo'llash zarur. Interfaol o'yinlar, amaliy faoliyatlar va multimedia texnologiyalari yordamida bolalar milliy an'analarga bo'lgan hurmatni shakllantirish mumkin. Tarbiya jarayonida milliy qadriyatlar asosida ishlash bolalar uchun ongli ravishda o'z millatiga, madaniyatiga hurmatni rivojlantiradi. Milliy qadriyatlarni tarbiyalash jarayonida an'anaviy va zamonaviy usullarni uyg'unlashtirish zarur. Shunday qilib, bolalar o'zining milliy merosiga hurmat bilan qarab, ularni kelajakda yanada rivojlantirishga qodir bo'ladi. Bu usullar bolalar uchun nafaqat bilim olish, balki o'zligini anglash va madaniyati bilan faxrlanish uchun qulay muhit yaratadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Xojaev N. Maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlarni o'rgatishning innovatsion usullari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. — 58 b.
2. Ahmedov B. Pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim jarayonidagi roli. — Toshkent: Akadernashr, 2019. — 5 b.
3. Karimova Z. Milliy qadriyatlar va ularning maktabgacha ta'limdagi ahamiyati. — Toshkent: O'qituvchi, 2021. — 6 b.
4. G'ulomov M. O'zbek xalqining tarixi va madaniyati. — Toshkent: Sharq, b. 43–45.
5. Yusupova R. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. — 2-chi nashr. — Toshkent, 2018. — 48 b. (asli 1993 yilda nashr etilgan)

UDK 376.72

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTORLARI IMIDJINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

A'zamova M.N., PhD dotsent
Toshkent shahridagi Puchon Universiteti
Begimkulova Z. Sh., magistrant,
Toshkent shahridagi Puchon Universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining imidjini shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Zamonaviy ta'lim tizimida rahbarning imidji nafaqat uning shaxsiy fazilatlarini va kasbiy mahoratiga, balki ta'lim muassasasining umumiy rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining imidjini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar, imidjni rivojlantirish strategiyalari hamda xalqaro tajriba asosida samarali yondashuvlar tahlil qilingan. Maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining professional imidjini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim tashkilotlari, direktor imidji, innovatsion boshqaruv, kasbiy rivojlanish, ta'lim sifati, imidj, imidjni shakllantirish, boshqaruv, muloqot qobiliyati.

Abstract. This article analyzes the issues of forming the image of preschool educational organization directors. In the modern education system, the image of a leader directly affects not only their personal qualities and professional skills, but also the overall development of the educational institution. The article analyzes the factors influencing the formation of the image of preschool educational organization directors, image development strategies, and effective approaches based on international experience. The article provides recommendations for the formation of the professional image of preschool educational organization directors.

Keywords: preschool educational institutions, director's image, innovative management, professional development, quality of education, image, image formation, management, communication skills.

Bugungi kunda ta'lim tizimi jahon miqyosida izchil rivojlanib, pedagogik menejment va rahbarlik sifatini oshirishga qaratilgan yondashuvlar tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Xususan, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tizimining samaradorligi bevosita ushbu muassasalarni boshqaruvchi direktorlarning yetakchilik qobiliyati, kasbiy kompetensiyalari va imidjiga bog'liq. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarining ijobiy imidji nafaqat ta'lim jarayonining sifatiga, balki pedagogik jamoa va jamiyatning ishonch darajasiga ham ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, kasbiy jihatdan yetuk rahbarlar o'zlarining shaxsiy va kasbiy fazilatlarini doimiy ravishda takomillashtirib borish bilan birga, innovatsion boshqaruv

strategiyalaridan samarali foydalanadilar. Shu sababli, maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining imidjini shakllantirish jarayoni nafaqat shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish, balki maktabgacha ta'lim tashkilotining umumiy mavqeini oshirishga ham xizmat qiladi.

Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining roli tobora ortib bormoqda. Maktabgacha ta'lim bosqichi bolalar shaxsining shakllanishida asosiy poydevor hisoblanadi. Shu bois, ushbu tizimda faoliyat yuritayotgan rahbarlarning kasbiy malakasi, boshqaruv qobiliyati va shaxsiy imidji ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorining imidji – bu nafaqat uning shaxsiy fazilatlari, balki tashkilotni boshqarish uslubi, ijtimoiy va kasbiy mavqei hamda jamoa bilan o'zaro munosabatlariga bog'liq bo'lgan kompleks tushuncha hisoblanadi. Samarali boshqaruv va pedagogik yetakchilik maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatining sifatli tashkil etilishi, ota-onalar hamda jamiyat orasida ijobiy obro'ga ega bo'lishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, ta'lim sifatini oshirish, rahbar, direktorlarning boshqaruv salohiyatini takomillashtirish va ularning zamonaviy imidjini shakllantirish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-4312-son qarori, "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024 yil 30-sentabrdagi PF-152-son farmoni, Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tizimini raqamlashtirish va maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 2024 yil 18-dekabrdagi 848-son qarori, Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2024-yil 20-dekabrdagi 867-son qarorlari mazmunida me'yoriy-huquqiy hujjatlar

maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining imidjini shakllantirish, ularning boshqaruv salohiyati, kasbiy rivojlanishi va ijtimoiy nufuzini oshirish bilan bog'liq asosiy me'yorlar belgilangan [2].

O'rganilgan tadqiqot tahlillariga asosan, "imidj" tushunchasi tadqiqotchi olimlar nazarida turlicha ta'riflar keltirilgan. Averyanov A.I., Rasskazova A.L. ta'kidlashicha, "Imidj – maqsadga qaratilgan shakllantirilgan obraz bo'lib, ommaga emotsional-psixologik ta'sir etishning umumlashgan ko'rinishidir" [3]. Bunda imidj tushunchasi "maqsadga qaratilgan shakllantirilgan obraz" sifatida ko'rib chiqilib, u jamoatchilik ongiga bevosita psixologik va hissiy ta'sir ko'rsatish imkonini berishi ta'kidlangan.

Tadqiqotchi Ne'matullayeva I.O rahbar imidji haqida quyidagicha fikrlarni bildirilgan: *"Rahbar imidji — bu rahbarning jamoa va jamiyat oldidagi tasavvori, uning boshqaruv uslubi va qarorlar qabul qilish qobiliyati asosida shakllangan umumiy tasavvurdir. Bu tasavvur rahbarning shaxsiy fazilatlarini, muloqot uslubi, ko'rinishi va tashkilot oldidagi yutuqlari orqali namoyon bo'ladi. Rahbarning imidji nafaqat tashkilot ichidagi ishlarni samarali boshqarish, balki jamoa a'zolari bilan mustahkam munosabatlar o'rnatish uchun ham muhimdir"* [4].

Shuningdek, V.V. Boyko tomonidan imidjning asosiy komponentlari shaxsning individual madaniyati, xulq-atvor tuzilishi, ichki falsafasi, atributlar va 'men-obrazi' sifatida o'rganilib, o'z tadqiqotlarida ushbu komponentlar mazmuni yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, "rahbarning imidji quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi: shaxsiy fazilatlar, professional ko'nikmalar, muloqot qobiliyatlari, ko'rinish va tashqi qiyofa hamda qaror qabul qilish qobiliyati [5]." Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining imidji ushbu jihatlarda asosida shakllansa, u nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki tashkilotning nufuzini ham mustahkamlaydi. Demak, direktor, rahbarning imidji faqat tashqi ko'rinish yoki nutq madaniyati bilan emas, balki uning boshqaruv qobiliyatlari, shaxsiy fazilatlarini va ijtimoiy ta'siri bilan ham belgilanadi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy imidji nafaqat uning shaxsiy fazilatlarini va boshqaruv kompetensiyalariga, balki

tashkilotning umumiy obro‘si va rivojlanishiga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari direktorlarining imidjini shakllantirishda ularning kasbiy malakasini oshirish, psixologik tayyorgarligini kuchaytirish, zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy etish hamda maktabgacha ta‘lim tashkilotining brend sifatida shakllanishiga e‘tibor qaratish lozim. Bu esa o‘z o‘rnida maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining sifati va nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 18-dekabrda “Maktabgacha ta‘lim tizimini raqamlashtirish va maktabgacha ta‘lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 848-son qarori. — URL: <https://lex.uz>
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha va maktab ta‘limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 20-dekabrda 867-son qarori. — URL: <https://www.lex.uz>
3. Аверьянов А. И., Рассказова А. Л. Методические рекомендации для студентов // МГПИ. Протокол. — 2010. — № 9.
4. Ne‘matullayeva I. O. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida rahbar imiji va uning psixologik tahlili // International scientific-practical conference “Preschool education: quality and efficiency, development perspectives”, 4–5.12.2024. — Pp. 198–202.
5. Jo‘raeva S. N. Zamonaviy pedagog imidjini shakllantirishda psixologik omillar ta‘siri // Zamonaviy ta‘lim / Sovremennoe obrazovanie. — 2020. — 1(86). — Pp. 49–55.

UDK 373.1

MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARIDA TA‘LIMY FAOLIYATNI SAMARALI BOSHQARISHNING AHAMIYATI

A‘zamova M.N., PhD dotsent
Toshkent shahridagi Puchon Universiteti
Sherbo‘tayeva D.A., magistrant,
Toshkent shahridagi Puchon Universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘limiy faoliyatni samarali boshqarishning ahamiyati, O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar va huquqiy-me‘yoriy hujjatlar tahlil qilingan. Maktabgacha ta‘lim tizimi bolalarning intellektual, ijtimoiy va psixologik rivojlanishida muhim bosqich bo‘lib, ta‘lim jarayonini sifatli tashkil etish kelajak avlodning ta‘limga tayyorgarlik darajasini oshirishga va maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim jarayonini yaxshilash, pedagogik samaradorlikni oshirish hamda bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta‘minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni ilgari surishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta‘lim, boshqaruv, ta‘lim sifati, innovatsion pedagogika, pedagogik menejment, ta‘lim jarayoni, ijtimoiy va psixologik rivojlanish.

Abstract. This article analyzes the significance of effective management of educational activities in preschool institutions, as well as the ongoing reforms and legal-regulatory documents aimed at developing the preschool education system in the Republic of Uzbekistan. The preschool education system serves as a crucial stage in children's intellectual, social, and psychological development, organizing high-quality educational processes aims to increase the future generation's preparedness for education and promotes scientific and practical recommendations. These recommendations focus on improving the educational process in preschool institutions, enhancing pedagogical effectiveness, and ensuring the comprehensive development of children.

Keywords: preschool education, management, quality of education, innovative pedagogy, pedagogical management, educational process, social and psychological development.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimi jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarning intellektual, ijtimoiy va psixologik rivojlanishida asosiy bosqich bo'lib, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish kelajak avlodning bilim saviyasini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ta'limiy faoliyatni samarali boshqarish nafaqat pedagogik jarayonni takomillashtirish, balki bolalarning har tomonlama rivojlanishiga yo'naltirilgan strategik yondashuvlarni joriy etish uchun ham zarurdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy faoliyatni samarali boshqarishning ahamiyati bir necha jihatdan namoyon bo'ladi. Birinchidan, ta'lim sifati va mazmunini yaxshilash orqali bolalarning qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ularni boshlang'ich ta'limga tayyorlash imkoniyati yaratiladi. Ikkinchidan, ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar va zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalanish orqali samaradorlik oshiriladi. Uchinchidan, pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini oshirish va boshqaruv samaradorligini ta'minlash orqali ta'lim jarayonining uzluksizligi va sifatini yaxshilashga erishiladi.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Maktabgacha ta'lim to'g'risida"gi Qonun va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan qarorlari bu yo'nalishda muhim huquqiy asos yaratmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy boshqaruv strategiyalarini joriy etish, ta'lim jarayonining sifatini oshirish hamda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'limiy faoliyatni samarali boshqarishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlari va huquqiy-me‘yoriy hujjatlari tahliliga ko‘ra, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-son qarori [1] maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlaydi. Unda ta’lim jarayoni, pedagogik kadrlar tayyorgarligi va ta’lim muassasalari faoliyati uchun belgilangan talablar bayon etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarori [2] O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha bo‘lgan maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlaydi. Unda esa, maktabgacha ta’limning sifati, raqamli texnologiyalarni joriy etish va kadrlar malakasini oshirish chora-tadbirlari belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21-iyundagi PQ-231-son qarori [3] maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan va uning mazmunida maktabgacha va maktab ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, pedagoglarning malakasini oshirish va ta’lim sifati samaradorligini oshirishga bilan bog‘liq asosiy me‘yorlar belgilangan.

S.O. Norbaevaning ta’kidlashicha, “Maktabgacha ta’lim tizimi uzluksiz ta’limning birlamchi, eng asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Shunday ekan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etiladigan ta’limiy faoliyatlar bugungi kunda har tomonlama sifatli va noan’anaviy bo‘lishi talab etiladi” [4]. Bunda maktabgacha ta’lim tizimining uzluksiz ta’lim jarayonidagi muhim bosqich ekanligi va uning zamonaviy talablar asosida tashkil etilishi zarurligi ifodalangan. Shuningdek, ushbu fikrda tadqiqotchi maktabgacha ta’lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishni, zamonaviy pedagogik innovatsiyalarni joriy etishni va bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan dolzarb masalani yoritadi.

Haydarova G.M. fikriga ko‘ra “Maktabgacha ta’lim tizimida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar samaradorligi ta’lim-tarbiya jarayoni subyektlarining bilim, ko‘nikma va malakalarining rivojlanishi, o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari darajasining o‘sishi bilan belgilanadi” [5]. Bunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish uchun ta’lim sifatini, pedagogik mahoratni va

bolalarning rivojlanish darajasini doimiy ravishda nazorat qilish, boshqarish va takomillashtirish zarurligi ta'kidlangan. Fikrimizcha, bu o'z o'rnida ta'lim jarayonining yanada sifatli va natijador bo'lishiga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy faoliyatni samarali boshqarish bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, ta'lim sifati va pedagogik jarayonlarni takomillashtirishning muhim omili hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy faoliyatni samarali boshqarish nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki bolalarning intellektual, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga ham sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa mamlakatimiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va raqobatbardosh kadrlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" 802-son qarori [Elektron resurs]. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5179335>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-4312-son qarori [Elektron resurs]. – URL: <https://lex.uz/docs/-4327235>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-231-son qarori [Elektron resurs]. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-6981085>
4. Norbaeva S. O. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy faoliyatlarni samarali tashkil etishda «Ilk qadam» davlat o'quv dasturining afzalliklari // «Maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini rivojlantirish: amaliyot va xorijiy tajriba» respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – 2024-yil 23–24-may. – B. 373–375.
5. Haydarova G. M. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy va tarbiyaviy jarayonlarni rejalashtirishga innovatsion yondashuv // O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2024. – 27-son. – 20-fevral. – B. 121–123.

UDK 373.211.24

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI ZAMONAVIY DIREKTORI IMIJINI YARATISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Baratova Shaxnoza Murodillayevna
Toshkent shahar Puchon Universiteti magistranti
Gaynazarova Gulbaxor Abdullayevna
Ilmiy rahbar, Ph.D, dotsent
Toshkent shahar Puchon Universiteti

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining imiji ta'lim tashkilotning umumiy qiyofasini belgilovchi muhim omillardan biridir. U faqat tashqi ko'rinish yoki nutq madaniyatidan iborat bo'lib qolmay, balki rahbarning kasbiy mahorati, boshqaruv uslubi, pedagogik jamoa bilan ishlash qobiliyati va innovatsion yondashuvlarga tayyorligi kabi jihatlarni ham o'z ichiga oladi. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining zamonaviy imijini shakllantirish tamoyillari, asosiy kompetensiyalari va innovatsion yondashuvlari tahlil qilinadi. Direktor faqatgina boshqaruvchi emas, balki strategik rejalashtiruvchi, yetakchi va jamoaga motivatsiya beruvchi shaxs sifatida namoyon bo'lishi lozimligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, direktor imiji, boshqaruv kompetensiyalari, innovatsion menejment, raqamli texnologiyalar, xalqaro tajriba, strategik rejalashtirish, barqaror rivojlanish tamoyillari, yetakchi, innovator.

Abstract: The image of the director of a preschool educational organization is one of the important factors determining the overall image of an educational organization. It consists not only of appearance or speech culture, but also includes such aspects as the leader's professional skills, management style, ability to work with a pedagogical team, and readiness for innovative approaches. This article analyzes the principles, key competencies, and innovative approaches for forming a modern image of a director of a preschool educational organization. It is emphasized that the director should appear not only as a manager, but also as a strategic planner, leader, and team motivator.

Keywords: preschool education, principal image, management competencies, innovative management, digital technologies, international experience, strategic planning, principles of sustainable development, leader, innovator.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari jamiyatda muhim o'rin egallab, bolalar ta'lim-tarbiyasini tashkil etishda asosiy rol o'ynaydi. Bugungi kunda direktorning faqatgina ma'muriy boshqaruvchi sifatida emas, balki yetakchi, innovator va strateg sifatida shakllanishi zarur. Zamonaviy jamiyatning talablariga javob beradigan rahbar ta'lim jarayonini samarali boshqarish, jamoani motivatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlardan foydalanish kabi kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim.


Direktor maktabgacha ta'lim tashkilotlarning tashkilotchisi, rahbari, malakali pedagog, uning faoliyati maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni komil inson qilib tarbiyalash vazifalarini to'laqonli hal etishga qaratilgan. U bolalar muassasalaridagi ta'lim-tarbiyaviy, pedagogik va gigiyenik talablar muvofiq ravishda amalga oshirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi [1].

Shaxsni yuksaltirish imiji - ijobiy imij tufayli shaxsning siymosi uning ma'naviy xislatini namoyon etadi, vizual tarzda uning eng yaxshi xususiyatlari moddiy tarzda gavdalanadi hamda uning individual o'ziga xosligi ko'rinadi. Psixologik jozibador xususiyatga ega shaxs, insonlar e'tibori va hurmatiga muqarrar, unga bu bioenergetik

quvvat to'ldirish va tiklash imkonini beradi, bunga undagi ijobiy barqaror xush kayfiyat misol bo'ladi. MTT direktorida o'zining maqsadlariga erishish sari optimizm va o'ziga ishonchi mavjud bo'lishi kerak. "O'zini taqdimot qilishning umumiy texnologiyasi"ning 4 ta asosiy texnologik jihatlar mavjud bo'lib, 1-rasmda

keltiriladi:[2]

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining imiji ta'lim tashkilotning umumiy qiyofasini belgilovchi muhim omillardan biridir. U faqat tashqi ko'rinish yoki nutq madaniyatidan iborat bo'lib qolmay, balki rahbarning kasbiy mahorati, boshqaruv uslubi, pedagogik jamoa bilan ishlash qobiliyati va innovatsion yondashuvlarga tayyorligi kabi jihatlarni ham o'z ichiga oladi. Zamonaviy ta'lim sharoitida samarali



Shakl 1. "O'zini taqdimot qilishning umumiy texnologiyasi"ning 4 ta asosiy texnologik jihatlar

rahbarlik qilish uchun quyidagi asosiy omillarni hisobga olish lozim.

Liderlik va boshqaruv kompetensiyalari. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari nafaqat ma'muriy funksiyalarni bajaruvchi shaxs, balki tashkilotning kelajakdagi rivojlanish yo'nalishini belgilovchi yetakchi bo'lishi lozim. Buning uchun quyidagi jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi:

Jamoani boshqarish va motivatsiya qilish ko'nikmalari – pedagogik jamoaning professional rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, ularning ish samaradorligini oshirish

uchun kerakli sharoit yaratish.

Strategik rejalashtirish va natijaviy yondashuv – maktabgacha ta'lim tashkilotining uzoq muddatli rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash, sifatli ta'lim berish uchun aniq maqsad va vazifalarni belgilash.

Samarali kommunikatsiya va muvofiqlashtirish – pedagoglar, ota-onalar va ta'lim tizimidagi boshqa manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqot o'rnatish, konstruktiv fikr almashish hamda o'zaro ishonch muhitini shakllantirish.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari innovatsion menejment tamoyillariga asoslangan holda faoliyat yuritishi lozim. Ta'lim jarayonida yangi texnologiyalarni joriy etish, ilg'or metodlarni qo'llash va doimiy ravishda takomillashish boshqaruvning ajralmas qismiga aylanishi kerak. Ushbu yo'nalishda quyidagi jihatlar muhim ahamiyatga ega:

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish – ta'lim jarayonida interfaol metodlar, STEAM yondashuvi va o'yin texnologiyalaridan samarali foydalanish.

Innovatsion ta'lim dasturlarini shakllantirish – bolalarning individual qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan yangi ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish – ta'lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali dars sifatini oshirish, elektron ta'lim platformalaridan foydalanish.

Ijtimoiy va psixologik jihatlar shundaki rahbarning shaxsiy va psixologik fazilatlarini uning imijini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori nafaqat boshqaruvchi, balki pedagogik jamoa, bolalar va ota-onalar o'rtasida ishonchli ko'prik vazifasini ham bajarishi lozim. Shu sababli, quyidagi jihatlar e'tiborga olinishi kerak:

Pedagog va ota-onalar bilan hamkorlik qilish – ta'lim jarayonida ochiqlik, ishonch va o'zaro fikr almashish muhitini yaratish.

Konstruktiv muhit yaratish va inqirozli vaziyatlarni boshqarish – nizoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish, jamoada ijobiy muhit shakllantirish.

Emosional intellekt va empatiya – bolalar, pedagoglar va ota-onalar bilan muloqotda sabr-toqatli, tushunuvchan va hamdard bo‘lish.

Ta’lim tizimida zamonaviy tendensiyalarni qo‘llashda zamonaviy ta’lim jarayoni doimiy o‘zgarish va rivojlanish bosqichida bo‘lib, maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari bu jarayonlardan xabardor bo‘lishi lozim. Xalqaro tajribalardan foydalangan holda milliy ta’lim tizimini rivojlantirish quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

Xalqaro tajribalarni o‘rganish va tatbiq etish – Finlyandiya, AQSh, Buyuk Britaniya, Singapur kabi ilg‘or davlatlarning maktabgacha ta’lim boshqaruvi tajribalarini o‘rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish.

Kadrlar malakasini oshirish bo‘yicha zamonaviy dasturlar – pedagoglarning malakasini oshirish, professional rivojlanishiga ko‘maklashuvchi maxsus dasturlarni ishlab chiqish va tatbiq etish.

Barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy etish – ta’lim tizimini ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan barqaror rivojlantirish bo‘yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqish.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori nafaqat boshqaruvchi, balki ta’lim jarayonining ilg‘or tashabbuskori va yetakchisi sifatida faoliyat yuritishi lozim. Zamonaviy direktor imidji liderlik, innovatsion menejment, ijtimoiy va psixologik jihatlar hamda zamonaviy ta’lim tendensiyalarini o‘z ichiga olishi kerak. Ushbu omillarni to‘g‘ri qo‘llagan holda, rahbar maktabgacha ta’lim sifatini oshirishga, pedagoglar va bolalar uchun qulay muhit yaratishga hamda ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ismanova M. A. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rahbarlik qilish va tashkil etish yo‘llari // Academic Research in Educational Sciences. — 2021. — Vol. 2, no. 5. — B. 1582. — ISSN: 2181-1385.
2. Meliyev X., Jamoldinova O., Risqulova K. Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent: Zarvaraq nashriyoti, 2021. — 288 b. — B. 47.

3. Qosimova Sh. N. Design of vocational training of managers and pedagogical personnel // Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT. — 2023. — Vol. 11. — P. 11–16. — ISSN: 2792-1883.
4. Temirov X. J. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining professional o'z-o'zini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari. — 2024. — 25 oktabr. — B. 100–102.
5. Umarova F. B. Q., Sodiqova N. A. Maktabgacha ta'lim tizimiga zamonaviy yondashuv // Scientific Progress. — 2021. — Vol. 2, no. 2. — B. 1218–1221.
6. Gaynazarova G. A., Baratova Sh. M. Zamonaviy rahbar imidjiga qo'yiladigan talablar // Raqamli pedagogika: holati va rivojlanish istiqbollari: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. — Toshkent, 2024. — 2-son. — B. 81–83.

UDK 37.014.5

АКТУАЛЬНОСТЬ ИЗУЧЕНИЯ ВОПРОСОВ ЦИФРОВИЗАЦИИ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Бауетдинов М.Ш., магистрант,
Университет Пучон в городе Ташкент
Набиулина Л.М., к.п.н., доцент,
Университет Пучон в городе Ташкент

Аннотация. В данной статье рассматриваются ключевые аспекты цифровизации в образовательной системе, существующие препятствия по ее внедрению, изучается актуальность использования цифровых технологий в сфере образования. Анализируются ключевые преимущества и проблемы, связанные с цифровизацией, рассматривается её влияние на педагогические практики и технологическую инфраструктуру, а также предлагаются пути решения текущих вызовов.

Ключевые слова: цифровизация, образовательные технологии, инновации, цифровые инструменты, образовательный процесс.

Abstract. This article defines digital transformation, examines key aspects of digitalization in the educational system, existing obstacles to its implementation, and studies the relevance of using digital technologies in education. It analyzes the key benefits and problems associated with digitalization, considers its impact on pedagogical practices and technological infrastructure, and suggests ways to solve current challenges.

Key words: digitalization, educational technologies, innovations, digital tools, educational process.

Развитие системы образования в Узбекистане возведено в ранг государственной политики. Задачи по реформированию этой важнейшей сферы, в которой сосредоточено будущее государства, решаются поэтапно. Одним из семи приоритетных направлений Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы является развитие человеческого капитала. Цели Стратегии предполагают в числе прочих задач повышение качества образования в школах

и поднятие на международный уровень знаний и квалификации педагогических кадров. Основное внимание уделялось организации учебного процесса в общеобразовательных школах регионов, качеству уроков, педагогическому потенциалу и мастерству, создаваемым условиям, активности учащихся, духовной среде в школах [1].

В соответствии с Указом Президента «О мерах по развитию сфер образования и воспитания, и науки в новый период развития Узбекистана» от 6 ноября 2020-го была поставлена задача по изучению зарубежных методик, обеспечение преемственности учебных планов дошкольных, общеобразовательных, средних специальных, профессионально-технических и высших учебных заведений образования. Поскольку воспитание всесторонне и гармонично развитого поколения - актуальная задача современности, то необходимо уделять особое внимание молодежи и исходя из этого разрабатывать новую концепцию кардинального улучшения духовной обстановки в школах. Одним из таких путей является использование работы в командах [2].

Глобальная пандемия подчеркнула важность внедрения цифровых технологий для стран в процессе развития, таких как Узбекистан. С начала 2000-х годов страна активно развивает информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), запустив стратегические программы, такие как «Цифровой Узбекистан 2030» и «Стратегия развития нового Узбекистана (2022–2026 годы)». Инвестиции в цифровую инфраструктуру играют ключевую роль в модернизации и инклюзивном экономическом развитии [3].

Цифровизация образования или цифровая трансформация в последние десятилетия стала важнейшим направлением развития образовательных систем по всему миру. Эта эпоха отмечена быстрыми изменениями в цифровых инструментах и технологиях, которые влияют на различные сектора. В условиях быстрого роста информационных технологий и глобализации образования цифровые инструменты становятся неотъемлемой частью учебного процесса. Цифровые технологии в образовании могут значительно улучшить качество

образовательных услуг, расширить доступ к знаниям и создать новые возможности для взаимодействия преподавателей и студентов. Однако внедрение таких технологий также сопровождается рядом серьезных вызовов.

Цифровая трансформация — это сложный процесс интеграции цифровых технологий и инновационных решений в различные аспекты жизни, который изменяет взаимодействие людей, работу правительства, бизнеса и науки. Этот тектонический сдвиг меняет парадигму того, как люди взаимодействуют друг с другом, а также динамику бизнеса, работу правительства и развитие науки. Переход от традиционных методов работы к цифровым подходам и применение инновационных технологий не только открывает новые возможности для общества, но и порождает проблемы и вызовы, по которым необходимо принимать решения.

Несмотря на бурное развитие цифровых технологий и инноваций в этой сфере по всему миру, тем ни менее существуют проблемы с цифровизацией в такой важной сфере как образование. Проблемы с цифровизацией в сфере образования могут быть связаны с несколькими аспектами, среди которых: неравенство в доступе к технологиям; низкий уровень цифровой грамотности у педагогов и учащихся; проблемы с качеством контента цифровых платформ; психологические и социальные проблемы; безопасность и защита данных; технические сбои и недостатки инфраструктуры; зависимость от технологий.

В некоторых регионах и странах существует значительный разрыв в доступе к интернету и современным цифровым устройствам. Узбекистан, находясь на пути технологического развития относится к ряду таких стран. Это приводит к тому, что ученики и студенты в этих регионах могут испытывать трудности с полноценным участием в онлайн-обучении. Для эффективного использования цифровых технологий в образовании важно, чтобы все участники образовательного процесса обладали достаточным уровнем цифровой грамотности. Однако не все преподаватели и учащиеся могут быть готовы к таким изменениям, что снижает эффективность цифровизации.

Многие онлайн-курсы и платформы не всегда предоставляют высококачественные материалы, что может привести к снижению образовательной ценности. Также существует проблема с адаптацией контента для различных возрастных и профессиональных групп. Переход на онлайн-формат обучения может привести к снижению личных взаимодействий между учащимися и преподавателями, что влияет на развитие социальных навыков и психологическое состояние студентов. Долгосрочное онлайн-обучение может вызывать чувство изоляции и усталости.

В связи с использованием цифровых платформ в образовании возникает вопрос защиты личных данных учащихся и преподавателей. Хакерские атаки, утечка данных и другие проблемы с безопасностью могут поставить под угрозу личную информацию.

В некоторых местах образовательные учреждения сталкиваются с техническими сбоями, недостаточной инфраструктурой или отсутствием специалистов, способных наладить эффективную работу цифровых образовательных платформ. Зависимость от технологий. Быстрое внедрение цифровых технологий в обучение может привести к излишней зависимости от технологий, что делает учебный процесс уязвимым при сбоях в системах или отсутствии интернета.

Таким образом, несмотря на очевидные преимущества цифровизации, такие как доступность образовательных ресурсов и гибкость форматов обучения, существует ряд значимых проблем, которые требуют решения для обеспечения равенства и качества образовательного процесса.

В зарубежных странах имеется огромный опыт по цифровизации образовательного процесса, в частности по внедрению цифрового тимбилдинга или обучения посредством цифровых групповых платформ. Цифровизация образования включает в себя интеграцию цифровых технологий в различные аспекты образовательного процесса, от разработки учебных материалов и платформ до использования онлайн-ресурсов и инструментов для управления

обучением. Основной целью внедрения цифровых инструментов является повышение качества и доступности образования для всех категорий обучающихся, независимо от их географического положения и социально-экономического статуса.

Основные цели цифровизации образования включают:

- повышение доступности образовательных ресурсов через интернет;
- обеспечение гибкости образовательного процесса, позволяя учащимся обучаться в удобное для них время и темпе;
- развитие новых форм и методов обучения, таких как смешанное обучение (blended learning), онлайн-курсы, виртуальные лаборатории и симуляторы
- усиление индивидуализации обучения и улучшение обратной связи между преподавателями и учащимися;
- развитие цифровой грамотности среди студентов и преподавателей, что способствует подготовке молодежи к современным требованиям рынка труда [4].

Рассмотрим преимущества внедрения цифровых инструментов в образование.

Одним из важнейших преимуществ цифровизации является доступность образовательных ресурсов. С развитием технологий учащиеся могут получать знания из любой точки мира, что особенно важно для удаленных и сельских районов. Онлайн-курсы, образовательные платформы и электронные учебники делают образование более доступным и многогранным, создавая возможности для студентов, которые по разным причинам не могут посещать традиционные образовательные учреждения.

Цифровые инструменты позволяют повысить вовлеченность учащихся в учебный процесс. Использование мультимедийных материалов, таких как видеоуроки, виртуальные экскурсии и образовательные игры, значительно повышает интерес к предмету и способствует лучшему усвоению материала.

Платформы с элементами геймификации и интерактивные задания делают процесс обучения более динамичным и мотивирующим.

Цифровизация предоставляет возможности для персонализированного подхода к каждому обучающемуся. Современные системы управления обучением (LMS) и аналитические инструменты позволяют преподавателям отслеживать успехи студентов и адаптировать программу под их индивидуальные потребности. Студенты могут выбирать темпы и формы обучения, что способствует повышению их успеваемости и удовлетворенности от процесса.

Цифровизация образования также способствует подготовке студентов к требованиям рынка труда, где цифровые навыки становятся неотъемлемой частью профессиональной деятельности. Использование цифровых инструментов, таких как программы для обработки данных, виртуальные лаборатории и симуляторы, помогает студентам осваивать практические навыки, которые востребованы в современных профессиях.

“... Констатируется факт, что увеличивается период пребывания человека в сети в течение дня. Активное использование возможностей сети влечет за собой как позитивные, так и негативные последствия. В информационном обществе огромное значение приобретает цифровая грамотность, которая включает цифровое потребление, цифровую компетентность и цифровую безопасность. STEM-образование является залогом популяризации и освоения навыков использования цифровых инструментов, которые будут востребованы в профессиях ближайшего будущего. Анализ атласа новых профессий позволил выделить некоторые востребованные профессии будущего: сетевой юрист, виртуальный адвокат, инфо-стилист, IT-проповедник, цифровой куратор и др. Сделан вывод о том, что цифровые технологии преобразуют способы социального взаимодействия, экономические отношения, институты” [5].

Несмотря на значительные преимущества, внедрение цифровых инструментов в образование сталкивается с рядом проблем и вызовов. Одной из

главных проблем является неравенство в доступе к технологиям, особенно в развивающихся странах и отдаленных регионах. Недостаток интернет-соединения, отсутствие современных устройств у учащихся и преподавателей ограничивает возможности для полноценного использования цифровых ресурсов. Это также создает угрозу углубления социального и образовательного неравенства.

Цифровая грамотность является необходимым условием для успешного использования цифровых инструментов в образовательном процессе. Однако не все преподаватели и студенты обладают достаточными знаниями и навыками для эффективного использования технологий. Это требует дополнительных усилий в подготовке педагогов и разработки образовательных программ, направленных на повышение цифровой грамотности.

Вопросы безопасности и конфиденциальности данных являются важным аспектом цифровизации образования. Онлайн-обучение сопровождается сбором большого объема личной информации о студентах, что требует соблюдения строгих стандартов защиты данных. Проблемы с безопасностью данных могут привести к утечке конфиденциальной информации и утрате доверия к цифровым образовательным платформам.

Долгосрочное использование цифровых инструментов может привести к снижению социальной активности студентов, так как онлайн-образование не всегда способствует полноценному взаимодействию с преподавателями и сверстниками. Отсутствие живых контактов и групповая динамика могут негативно сказаться на развитии коммуникативных и социальных навыков у студентов.

За последние несколько лет Узбекистан добился значительных успехов в цифровизации образования. Правительство страны реализовало различные реформы и инициативы по модернизации образовательного сектора, уделяя особое внимание интеграции цифровых инструментов и технологий как в учебную программу, так и в административные процессы.

Одной из заметных инициатив является программа «ИКТ в образовании», которая фокусируется на обучении учителей использованию современных технологий в классе и обеспечении школ необходимым оборудованием и программным обеспечением. Правительство также инвестировало в создание национальной цифровой библиотеки для предоставления бесплатного доступа к академическим ресурсам для студентов и преподавателей [6].

Для успешного внедрения цифровых инструментов в образование необходимо преодолеть ряд вызовов и проблем. Некоторые возможные пути решения включают:

- развитие инфраструктуры и улучшение доступа к технологиям в удаленных и сельских районах;
- обучение преподавателей цифровым навыкам и подготовка специализированных курсов по использованию образовательных технологий;
- усиление мер безопасности и защиты данных на образовательных платформах;
- комбинированные формы обучения, включающие как онлайн-курсы, так и оффлайн-занятия, чтобы обеспечить баланс между цифровыми технологиями и личными взаимодействиями [7].

Таким образом, цифровизация образования является важным шагом на пути к улучшению качества и доступности образования в мире. Внедрение цифровых инструментов предоставляет новые возможности для учащихся и преподавателей, способствует развитию персонализированного подхода и подготовке к современным требованиям рынка труда. Однако успешная цифровизация требует решения проблем, таких как неравенство в доступе к технологиям, низкий уровень цифровой грамотности и вопросы безопасности данных. Важно, чтобы образовательные учреждения и правительства принимали меры для преодоления этих препятствий и обеспечения эффективного внедрения цифровых технологий в образовательный процесс.

Список литературы

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 28.01.2022 г. № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 - 2026 годы».
2. Указ Президента Республики Узбекистан от 06.11.2020 г. № УП-6108 «О мерах по развитию сфер образования и воспитания, и науки в новый период развития Узбекистана». // <https://lex.uz>
3. Цифровизация – важный «драйвер» развития нового Узбекистана. // <https://strategy.uz>
4. Garrison D. Randy, Vaughan N. D. Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines. – Vol. 1. – P. 5.
5. Киселева Л. С., Семёнова А. А. Цифровая трансформация общества: тенденции и перспективы // Текст научной статьи по специальности «Социологические науки». – Санкт-Петербург, 2018. // <https://cyberleninka.ru>
6. Хамидов Р. Цифровизация образования в Узбекистане: современные вызовы и возможности. – Ташкент: Издательский дом «Узбекистан», 2020. – 143 с.
7. UNESCO. Global Education Monitoring Report: The role of digital technologies in education. – UNESCO, 2020. // <https://en.unesco.org>

UDK 373.2:371.6

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI MUHITINI MODERNIZATSIYA QILISH

G'afforova Zamira, magistrant,
Toshkent shahridagi Puchon universiteti
Pulatova Mohira Baxtiyorovna, dotsent, Phd
Toshkent shahridagi Puchon universiteti

Annotatsiya. Maktabgacha ta'lim muassasalari muhitini modernizatsiya qilish zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, bolalarning intellektual, ijtimoiy va emosional rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muhitini modernizatsiya qilishning dolzarbligi, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari, shuningdek, didaktik va innovatsion yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida maktabgacha ta'lim tizimidagi mavjud muammolar, ularning yechimlari hamda zamonaviy talablarga mos ta'lim muhiti yaratish usullari ko'rib chiqilgan. Xususan, interfaol usullar, raqamli vositalar va ekologik jihatdan qulay shart-sharoitlarni joriy etishning samaradorligi tahlil etiladi. Mazkur tezis ta'lim muassasalarining rivojlanish strategiyasini shakllantirishga, shuningdek, pedagoglar va mutaxassislar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, modernizatsiya, innovatsion yondashuvlar, interfaol ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Abstract. Modernization of the environment of preschool educational institutions is one of the important directions of modern pedagogy, aimed at ensuring the intellectual, social and emotional development of children. This article analyzes the relevance of modernization of the preschool educational environment, the possibilities of using advanced pedagogical and information and communication technologies, as well as didactic and innovative approaches. The research process considered existing problems in the preschool education system, their solutions, and methods for creating an educational environment that meets modern requirements. In particular, the effectiveness

of the introduction of interactive methods, digital tools, and environmentally friendly conditions is analyzed. This article serves to formulate a development strategy for educational institutions, as well as to develop practical recommendations for educators and specialists.

Keywords: preschool education, modernization, innovative approaches, interactive education, information and communication technologies.

Maktabgacha ta'lim muassasalari (MTM) har qanday jamiyatning kelajak taraqqiyotiga bevosita ta'sir qiluvchi muhim institutlardan biri hisoblanadi. Bolalarning intellektual, psixologik va jismoniy rivojlanishida bu muassasalar muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish va modernizatsiya qilishga alohida e'tibor qaratilib, davlat dasturlari, xalqaro tajriba va ilmiy tadqiqotlar asosida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda 2017–2023-yillar davomida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirildi. Xususan, 2019-yilda «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Prezident qarori qabul qilindi va Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi tashkil etildi [1]. Bu qaror tizimni institutsional asosda rivojlantirishga xizmat qilib, sohaga ajratilayotgan mablag'larni ko'paytirish, yangi muassasalarni barpo etish, pedagoglar malakasini oshirish va ta'lim muhitini modernizatsiya qilishga yo'naltirildi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yilda maktabgacha ta'lim qamrovi 27 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 70 foizga yetdi.

Muhitni modernizatsiya qilish faqatgina infratuzilmani yaxshilash bilan cheklanmaydi, balki pedagogik yondashuvlarni ham yangilashni talab qiladi. Psixologlar va pedagoglar, jumladan, Rahmatovna, U. M, Ulug'bekovna, D. E, Ruzieva, S, V.V. Davydov, L.S. Vygotskiy va J. Piagening tadqiqotlariga ko'ra, bolalar kichik yoshdan boshlab atrof-muhit ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi. Shuning uchun MTM muhitining har bir jihati – jihozlar, didaktik materiallar, texnologik vositalar, o'quv dasturlari hamda pedagoglarning metodik yondashuvlari bolalarning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [2].

O'zbekistonda 2021-yilda "Ilk qadam" davlat dasturi joriy etilib, bu orqali maktabgacha ta'lim muassasalarining jihozlanishi, o'quv rejalari va metodik

qo'llanmalar modernizatsiya qilindi. Xususan, zamonaviy didaktik o'yinlar, interfaol texnologiyalar, STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika) elementlari ta'lim tizimiga integratsiya qilindi. Bu yondashuvlar maktabgacha yoshdagi bolalarda analitik tafakkurni rivojlantirish, kreativ fikrlashni shakllantirish va muammolarni mustaqil hal qilish ko'nikmalarini oshirishga xizmat qilmoqda [3].

Bundan tashqari, bolalarning ijtimoiy-emosional rivojlanishiga e'tibor qaratish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlarga ko'ra, Bolalarni kichik yoshdan ijtimoiy hayotga moslashtirish ularning kelgusida maktabga tayyorgarligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi ta'lim vazirligi tomonidan o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, o'quv muassasalarida innovatsion texnologiyalar joriy etilgan holda ta'lim berilayotgan bolalar ijtimoiy moslashuv jihatidan yuqori natijalarga ega bo'lmoqda. Jumladan, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan turli dasturlar doirasida o'quvchilarni axloqiy va estetik tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilib, bu jarayonda zamonaviy vositalar, jumladan, audiovizual materiallar va interfaol ta'lim metodlari joriy qilinmoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida xorijiy tajribalar ham o'rganilib, mahalliy sharoitga moslashtirilmoqda. Masalan, Finlyandiya maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning mustaqil o'rganishiga katta e'tibor qaratiladi. Bu model O'zbekistondagi ayrim MTMlarda ham sinov tariqasida qo'llanilib, ta'lim jarayoniga integratsiya qilinmoqda. Bundan tashqari, Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasi asosida bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodikalar kiritilib, shaxsiy rivojlanishga qaratilgan o'quv dasturlar ishlab chiqilmoqda [4].

Jahon bankining 2023-yilda e'lon qilgan hisobotida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi ta'kidlangan. Hisobotda maktabgacha ta'lim muassasalariga kiritilgan har bir dollar iqtisodiyotga 6-7 baravar ko'proq daromad olib kelishi mumkinligi qayd etilgan. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda davlat-xususiy sheriklik asosida MTMlar soni ortib, 2023-yil oxiriga

kelib ularning soni 23 mingdan oshdi. Bu nafaqat bolalarni ta'lim bilan qamrab olishni oshirishga, balki ta'lim sifatini yaxshilashga ham xizmat qilmoqda [5].

Shu bilan birga, MTMlarni modernizatsiya qilishda ekologik omillarga ham e'tibor qaratilmoqda. Masalan, O'zbekiston respublikasi hududlari rivojlantirish uchun "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Prezident 4312-sonli qarori tasdiqlangan bo'lib, qarorda belgilan vazifalarda MTM yanada rivojlantirish ko'rsatilgan.. Bu konsepsiya asosida bog'chalarda tabiiy materiallardan foydalanish, ekologik ta'limni yo'lga qo'yish va bolalarni atrof-muhit muhofazasiga o'rgatish bo'yicha dasturlar ishlab chiqildi.

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, maktabgacha ta'lim muassasalarini modernizatsiya qilish nafaqat ta'lim sifati va pedagogik yondashuvlarni o'zgartirishni, balki infratuzilma, ijtimoiy-iqtisodiy omillar va texnologik innovatsiyalarni uyg'unlashtirishni talab qiladi. Shu bois, kelgusida bu borada chuqur tadqiqotlar olib borish, ilg'or xorijiy tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish va ta'lim muhitini yanada takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda[6].

Maktabgacha ta'lim muassasalari muhitini modernizatsiya qilish bugungi kunda bolalar tarbiyasi va rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy ta'lim muhitini shakllantirish pedagogik jarayonni interfaol, innovatsion va texnologik jihatdan boyitish imkonini beradi. Muhitni modernizatsiya qilish natijasida bolalarning ijodiy tafakkuri rivojlanib, ularning mustaqil fikrlash qobiliyati ortadi. Shuningdek, bolalar rivojlanishiga moslashtirilgan ergonomik muhit ularning jismoniy va ruhiy salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsion o'quv vositalari, axborot texnologiyalari hamda didaktik materiallarning integratsiyasi ta'lim sifatini oshiradi. Ushbu tadqiqotda maktabgacha ta'lim muassasalarining muhitini modernizatsiya qilish tamoyillari, muhim omillari va zamonaviy yondashuvlari tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish bolalarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirishga va sifatli ta'lim berishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.05.2019 yildagi PQ-4312-sonli qarori // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari. – Toshkent, 2019. – 5 may. – URL: <https://www.president.uz/>.
2. Ulug'bekovna D. E. Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini rejalashtirish va boshqarish usullari // Modern educational system and innovative teaching solutions. – 2024. – T. 1, № 4. – B. 344–347.
3. Bobayev X. J. “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi asosida ta'limiy faoliyat jarayonini rejalashtirish // Science and innovation. – 2024. – T. 3, Special Issue 38. – B. 762–763.
4. Soyipov J. A. Yurtimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar va o'zgarishlar // Journal of international scientific research. – 2024. – T. 1, № 4. – B. 296–300.
5. Ruzieva S. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishda faoliyatning o'rni // Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali. – 2021. – T. 1, № 1.
6. Rahmatova U. M. Maktabgacha ta'lim tashkilotining imijini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar // Special for teachers. – 2024. – T. 1, № 1.

UDK 373

ИНТЕГРАЦИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНУЮ СРЕДУ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ВОЗМОЖНОСТИ, ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ

И.В. Грошева – заведующая кафедрой дошкольного образования Университета Пучон в Ташкенте, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам

Аннотация. в статье рассматриваются ключевые аспекты интеграции цифровых технологий в образовательную среду дошкольного образования Республики Узбекистан. Обосновывается актуальность цифровизации как важного инструмента модернизации образовательно-воспитательного процесса и повышения качества обучения на раннем этапе развития детей, представлены перспективы развития, включая создание цифровой инфраструктуры, локализованного образовательного контента и системы подготовки кадров.

Ключевые слова: цифровизация образовательной среды, цифровизация, цифровой контент, технологии, педагогов, управление, риски.

Abstract. The article examines the key aspects of integrating digital technologies into the educational environment of preschool education in the Republic of Uzbekistan. The relevance of digitalization is substantiated as an essential tool for modernizing the educational process and improving the quality of learning at an early stage of child development. Development prospects are presented, including the creation of digital infrastructure, localized educational content, and a comprehensive system for training personnel.

Key words: Digitalization of the educational environment, digitalization, digital content, technologies, educators, management, risks.

Современные вызовы, такие как глобализация, цифровая трансформация

общества и новые требования к качеству образования, делают цифровизацию дошкольного образования ключевым направлением развития системы образования.

В стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030», принятой в 2020 году немаловажная роль отводится трансформации образовательной системы страны. В рамках стратегии особое внимание уделяется внедрению информационных технологий на всех уровнях образования, включая дошкольное [1].

Цифровизация дошкольного образования является одной из ключевых стратегий, направленных на улучшение качества образования и воспитания детей на раннем этапе их развития. В условиях ускоренной цифровой трансформации Узбекистан активно внедряет современные технологии во все уровни образовательной системы, включая дошкольное образование.

В последние годы в Узбекистане наблюдается значительный рост охвата детей дошкольным образованием. Государственная программа «Развитие системы дошкольного образования на 2017-2023 годы» способствовала открытию новых дошкольных образовательных организаций, повышению квалификации педагогов и созданию новых образовательных стандартов.

Цифровизация образовательной среды в дошкольном образовании представляет собой внедрение современных информационно-коммуникационных технологий в процесс обучения и воспитания детей дошкольного возраста. Это направление приобретает особую актуальность в контексте глобальной цифровой трансформации общества и образования. Внедрение современных информационно-коммуникационных технологий способствует созданию высокоэффективной образовательной среды, обеспечивающей индивидуализацию и интерактивность обучения.

Внедрение цифровых технологий в дошкольное образование позволяет:

Повысить доступность образовательных услуг. Использование онлайн-платформ и мобильных приложений дает возможность детям в удаленных регионах получать доступ к качественным образовательным материалам.

Модернизировать образовательно-воспитательный процесс. Интегрировать интерактивные программы, виртуальная реальность и обучающие игры стимулируют познавательный интерес у детей и способствуют развитию навыков XXI века, таких как креативность и критическое мышление.

Оптимизировать управление дошкольными образовательными организациями. Электронные системы учета, мониторинга и анализа данных облегчают управление дошкольными образовательными организациями и повышают эффективность принятия решений.

Как показывают исследования, проведенные учеными А.Н. Вераксой, Стожаровой и Ю.А. Михайловой показали, что качественный цифровой контент, цифровые лаборатории и робототехника, способствует развитию интеллектуальных способностей у детей старшего дошкольного возраста.

В условиях цифровой трансформации общества возникает необходимость разработки и реализации современной модели дошкольного образования, основанной на использовании дистанционных цифровых технологий. Эти технологии, при необходимости, могут играть ключевую роль в организации взаимодействия между дошкольной образовательной организацией и семьей.

В контексте дошкольного образования цифровизация представляет собой процесс модернизации содержания, методов, форм обучения и развития детей дошкольного возраста, основанный на использовании профессионального оборудования, электронных ресурсов, образовательных платформ, онлайн-сервисов и других цифровых технологий.

Перспективами развития образовательной среды в дошкольных образовательных организациях можно рассматривать такие направления как:

Создание цифровой инфраструктуры. Для успешной цифровизации необходимо обеспечить все дошкольные образовательные организации современными устройствами, высокоскоростным интернетом и доступом к специализированному программному обеспечению.

Разработка цифрового контента. Создание локализованных и культурно

адаптированных обучающих материалов на узбекском языке позволит учитывать особенности национальной педагогики и менталитета. Примером является платформа «Bolalik akademiyasi», запущенная в Узбекистане при поддержке Международного детского фонда ООН (ЮНИСЕФ). Она предоставляет педагогам доступ к курсам повышения квалификации и планам занятий, а детям – к развивающим играм и обучающим видео, способствуя обучению на дому и расширяя доступ к качественным образовательным ресурсам.

Подготовка кадров. Обучение педагогов цифровым компетенциям и внедрение курсов повышения квалификации помогут эффективно использовать технологии в образовательно-воспитательном процессе.

Сотрудничество с частным сектором. Партнерство с IT-компаниями может ускорить разработку и внедрение инновационных решений, включая платформы для дистанционного обучения и управления.

Однако, несмотря на высокую динамику внедрения инноваций, важно учитывать и анализировать потенциальные риски, связанные с цифровизацией.

Для более полного анализа рисков, связанных с цифровизацией дошкольного образования, целесообразно обратиться к нормативно-правовым актам, регулирующим деятельность дошкольных образовательных организаций, в частности к санитарным правилам. С введением в действие новых санитарных норм Республики Узбекистан (№ 0355-18) были установлены требования к использованию, где «непосредственно образовательную деятельность с использованием компьютеров для детей 5-7 лет следует проводить не более 1-го раза в течение дня и не чаще 3-х раз в неделю где, непрерывная продолжительность работы с компьютером в форме развивающих игр для детей 5 лет не должна превышать 10 минут и для детей 6-7 лет - 15 минут» [2].

Родители играют ключевую роль в инициировании взаимодействия ребенка с цифровой средой, становясь проводниками в этот мир. Уже в раннем возрасте они знакомят детей с цифровыми устройствами, такими как планшеты,

Yevropaning boshqa mamlakatlarida, masalan, Germaniyada, maktabgacha ta'lim rahbarlarini raqamli boshqaruvga tayyorlashda davlat tomonidan tashkil etilgan maxsus dasturlar mavjud. Ushbu dasturlar rahbarlarga raqamli texnologiyalarni qanday qilib ta'lim jarayonida qo'llash, o'quvchilarning ta'lim sifatini oshirish va ta'lim muassasalari ichida samarali boshqaruv tizimini yaratish bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Dasturlar davomida rahbarlar zamonaviy raqamli vositalar bilan tanishish, ularni amaliyotda qo'llash va o'z tashkilotlarida raqamli boshqaruvni joriy etish bo'yicha strategiyalarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bundan tashqari, Avstraliyada ham maktabgacha ta'lim rahbarlarini raqamli boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda innovatsion yondashuvlar qo'llanilmoqda. Avstraliyada raqamli boshqaruvni o'rgatish uchun maxsus tayyorgarlik dasturlari ishlab chiqilgan bo'lib, bu dasturlar rahbarlarga raqamli texnologiyalarni o'z tashkilotlarida qanday qilib samarali joriy etish va boshqarish bo'yicha ko'nikmalarni o'rgatadi. Ushbu dasturlar davomida rahbarlar raqamli platformalarda ishlash, ma'lumotlarni tahlil qilish va o'z tashkilotlarining raqamli strategiyalarini ishlab chiqish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazadilar.

Yana bir muhim jihat shundaki, maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarini raqamli boshqaruvga tayyorlashda xorijiy tajribalar asosida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish va tajriba almashish muhim ahamiyatga ega. Xalqaro tashkilotlar va fondlar maktabgacha ta'lim rahbarlariga raqamli boshqaruvni o'rgatish bo'yicha turli loyihalarni amalga oshirishda yordam beradi. Bunday loyihalar doirasida rahbarlar o'zaro tajriba almashish, eng yaxshi amaliyotlarni o'rganish va raqamli boshqaruvni joriy etish bo'yicha strategiyalarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'lishadi [4].

Shuningdek, xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim

rahbarlarini raqamli boshqaruvga tayyorlashda o'qituvchilarni ham jalb qilish zarur. O'qituvchilar va rahbarlar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish, ularning o'zaro tajriba almashishi va raqamli boshqaruvni qo'llash bo'yicha birgalikda ishlashi ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. O'qituvchilar rahbarlarga raqamli texnologiyalarni qanday qilib ta'lim jarayonida qo'llashni o'rgatish orqali, o'z navbatida, o'z bilim va ko'nikmalarini ham kengaytiradilar. Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarini raqamli boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda o'zaro tarmoq va hamkorlik platformalarini yaratish ham muhimdir. Bunday platformalar rahbarlarga bir-birlari bilan fikr almashish, tajriba va bilimlarini baham ko'rish imkoniyatini beradi. O'zaro tarmoq orqali rahbarlar bir-birlaridan o'rganadilar, yangi g'oyalar va yondashuvlarni kashf etadilar, bu esa ularning professional rivojlanishiga yordam beradi [5].

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarini raqamli boshqaruv faoliyatiga tayyorlash jarayoni xorijiy tajribalar asosida samarali tashkil etilishi mumkin. Raqamli texnologiyalarni qo'llash, pedagoglar va rahbarlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, o'zaro tajriba almashish va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish orqali rahbarlarning raqamli boshqaruv ko'nikmalarini oshirish mumkin. Bunday yondashuvlar, o'z navbatida, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining samaradorligini oshirishga va tarbiyalanuvchilarning ta'lim sifatini yaxshilashga yordam beradi. Raqamli boshqaruv faoliyatiga tayyorlash jarayoni, shuningdek, rahbarlarning professional rivojlanishini ta'minlash va ularni zamonaviy ta'lim muhitiga moslashishga yordam beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Abdurahmanova, S.Sh. Practical-seminar classes and methods on teaching technology of methodological subjects. – Tashkent: Science and mind, 2023. – 43-b
2. Askarov, M. Digital technologies and educational processes. – Fergana: Fergana State University, 2021. – 67-b.
3. Davronov, J. Managing Digital Learning: Experience and Innovation. – Tashkent: Uzbekistan State University of Journalism and Culture, 2023. – 32-b.
4. Ismailov, F. Learning management based on foreign experiences. – Namangan: Namangan State University, 2022. – 76-b.

5. Karimova, D. Digital Governance and Preschool Education: Empirical Experiences. – Tashkent: Ministry of Public Education of the Republic of Uzbekistan, 2022. – 12-b.

UDK 004:37.091.3:316.4

**FAN VA JAMIYAT RIVOJLANISHINING RAQAMLI
TRANSFORMATSIYA DAVRIDAGI DOLZARB JIHLTLARI
(MARKAZIY OSIYO MISOLIDA)**

Karimova M.D. bakalavriat,
Toshkent shahridagi Puchon universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli transformatsiya jarayoni va uning Markaziy Osiyodagi ilm-fan hamda jamiyat rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Ilmiy izlanish olib borish davomida asosiy e'tibor axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining fan va ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'siri hamda innovatsion yondashuvlar tahliliga qaratilgan bo'lib, bundan ko'zlangan maqsad sohani rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, shuningdek raqamli transformatsiyaning mintaqaviy xususiyatlarini o'rganish va uning ilmiy va ijtimoiy jarayonlarga ta'sirini aniqlashdir. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Markaziy Osiyoda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish uchun institutsional va texnik infratuzilmani takomillashtirish zarurligi aniqlandi. Shuningdek, maqolada ilgari surilgan tavsiyalar asosida raqamli innovatsiyalarni ta'lim va ilmiy tadqiqotlarga samarali tatbiq etish bo'yicha amaliy takliflar muallif tomonidan taklif etildi.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, fan rivojlanishi, jamiyat, axborot texnologiyalari, innovatsiya, Markaziy Osiyo.

Abstract. This article analyzes the process of digital transformation and its impact on the development of science and society in Central Asia. During the scientific research, the main focus was on the integration of information and communication technologies into the science and education system, their impact on socio-economic development, and the analysis of innovative approaches. The goal is to develop recommendations for the development of the sector, as well as to study the regional characteristics of digital transformation and determine its impact on scientific and social processes. According to the results of the research, it was determined that there is a need to improve the institutional and technical infrastructure for the widespread introduction of digital technologies in Central Asia. Also, based on the recommendations put forward in the article, the author proposed practical proposals for the effective implementation of digital innovations in education and scientific research.

Keywords: digital transformation, development of science, society, information technologies, innovation, Central Asia.

Raqamli transformatsiya zamonaviy jamiyatning barcha sohalariga jadal kirib kelmoqda va uning ta'siri ilm-fan, ta'lim, iqtisodiyot va ijtimoiy hayotda tobora ortib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida ma'lumot almashinuvi tezlashib, yangi innovatsion yechimlar paydo bo'lyapti. Ayniqsa, Markaziy Osiyo davlatlari uchun raqamli transformatsiya ilmiy va ijtimoiy

taraqqiyotning muhim omiliga aylanmoqda. Ushbu jarayon mintaqadagi iqtisodiy o‘rnatishni jadallashtirish, ta’lim sifatini oshirish, jamiyatda ochiqlik va samaradorlikni ta’minlash kabi muhim yo‘nalishlarda o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Shu sababli, raqamli transformatsiyaning mintaqaviy xususiyatlarini chuqur o‘rganish va uning istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotning innovatsion jihati shundaki, u raqamli transformatsiyaning ilm-fan va jamiyat rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’sirini Markaziy Osiyo misolida tahlil qiladi. Hozirgi kunda mavjud tadqiqotlarning aksariyati global yoki rivojlangan mamlakatlar kontekstida olib borilgan bo‘lib, Markaziy Osiyodagi o‘ziga xosliklar yetarli darajada yoritilmagan. Shu bilan birga, texnologik yangiliklarning ta’lim, ilm-fan va iqtisodiyotga ta’hiri har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitiga bog‘liq ravishda farqlanadi. Shuning uchun ushbu maqola mintaqadagi real holatni aks ettirish, raqamli tafovut va imkoniyatlarni aniqlash hamda ilg‘or tajribalarni umumlashtirishga qaratilgan.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, u mavjud tadqiqotlardagi bo‘shliqlarni to‘ldirishga harakat qiladi. Markaziy Osiyo davlatlarida raqamli transformatsiyaning fan va jamiyatga integratsiyalashuvi, uning imkoniyat va xavflari yetarlicha o‘rganilmagan. Shu bois maqola ushbu sohada muammolar va istiqbollarni aniqlash orqali kelajakdagi ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, maqola natijalari siyosatchilar, tadbirkorlar va ta’lim sohasidagi mutaxassislar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda asos bo‘lishi mumkin.

Metodologiya Maqolada ilmiy-tahliliy yondashuv qo‘llanilib, statistik ma'lumotlar, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari hamda ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil olib boriladi. Shuningdek, taqqoslash va empirik metodlardan foydalaniladi.

Raqamli transformatsiya bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar dunyo miqyosida keng qamrovga ega bo‘lib, ushbu sohada ko‘plab olimlar muhim hissasini qo‘shgan. G‘arb tadqiqotchilaridan M. Castells axborot jamiyati va internet inqilobi haqida fundamental tadqiqotlar olib borgan bo‘lib, u raqamli texnologiyalar insoniyat taraqqiyotiga qanday ta’sir qilishini batafsil o‘rgangan [1]. Shuningdek, K. Schwab

“To‘rtinchi sanoat inqilobi” asarida zamonaviy texnologiyalarning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarga ta‘sirini tahlil qilgan [2]. Uning tadqiqotlari raqamli transformatsiyaning global miqyosdagi oqibatlarini tushuntirishga qaratilgan bo‘lsa-da, unda Markaziy Osiyo davlatlari va ularning o‘ziga xos muammolari haqida yetarli ma‘lumot berilmagan.

Markaziy Osiyo kontekstida olib borilgan tadqiqotlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, O‘zbekiston, Qozog‘iston va boshqa mintaqa olimlari raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalari va ta‘lim sohasidagi innovatsiyalarni o‘rganib kelmoqda. Xususan, O‘zbekistonda I. Abduqodirov raqamli texnologiyalarning iqtisodiyotga ta‘sirini o‘rganib, elektron hukumat tizimining rivojlanishi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan [3]. Biroq, ushbu tadqiqotlar asosan iqtisodiy jihatlarni qamrab olgan bo‘lib, raqamli transformatsiyaning ilm-fan va jamiyat rivojlanishiga ta‘siri yetarlicha yoritilmagan. Qozog‘istonlik olimlar A. Alimbekova va B. Nurmanova esa ta‘lim sohasida raqamli texnologiyalarning o‘rni va pedagogik innovatsiyalar haqida tadqiqot olib borib, masofaviy ta‘limning istiqbollarini tahlil qilgan [4]. Ularning ishlari raqamli ta‘limning afzalliklarini ochib bergan bo‘lsa-da, jamiyatdagi raqamli tafovut, texnologiyalarga teng imkoniyat ta‘minlash va mintaqadagi ilmiy tadqiqotlarga ta‘siri haqida yetarli fikr bildirilmagan.

Tahlildan ko‘rinib turibdiki, mavjud ilmiy adabiyotlar raqamli transformatsiyaning global va ayrim sektorlar bo‘yicha natijalarini yaxshi yoritib bergan, biroq Markaziy Osiyo davlatlaridagi ilm-fan va jamiyat rivojlanishiga ta‘siri chuqur o‘rganilmagan. Mavjud tadqiqotlarning aksariyati iqtisodiyot va ta‘lim sohasiga qaratilgan bo‘lib, ilmiy-tadqiqot jarayonlari, jamiyatdagi texnologik o‘zgarishlar, raqamli tafovut va innovatsion taraqqiyot kabi jihatlar yetarlicha yoritilmagan.

Yuqorida keltirilgan ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, Markaziy Osiyoda raqamli transformatsiya jarayonining ilm-fan va jamiyat rivojlanishiga ta‘siri bo‘yicha tadqiqotlar yetarli emas. Xususan, raqamli tafovut muammosi, axborot texnologiyalarining ijtimoiy stratifikatsiyaga ta‘siri, ilm-fan

sohasidagi innovatsiyalar va ularning real sektor bilan bog‘liqligi chuqur tadqiq etilmagan. Shuningdek, mavjud tadqiqotlarda raqamli transformatsiyaning barqaror rivojlanish va ijtimoiy taraqqiyotga ta’siri haqida to‘liq tahlil yetishmaydi [5].


Mazkur maqola ana shu tadqiqot bo‘shlig‘ini to‘ldirishga xizmat qiladi. Tadqiqot Markaziy Osiyo davlatlari misolida raqamli transformatsiyaning ilm-fan va jamiyatga ta’sirini har tomonlama o‘rganib, bu boradagi imkoniyat va cheklovlarni tahlil qiladi. Bundan tashqari, maqolada raqamli tafovutni kamaytirish, axborot texnologiyalarining ta’lim va tadqiqotlarga integratsiyasini kuchaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beriladi. Shu tariqa, tadqiqot nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham foydali bo‘lib, siyosatchilar, ilmiy doiralar va ta’lim sohasi mutaxassislari uchun muhim yo‘nalishlarni aniqlashga yordam beradi.

Muhokama va natijalar: Raqamli transformatsiya Markaziy Osiyo davlatlarida ilm-fan va jamiyat rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’lim va ilmiy tadqiqotlarga integratsiyalashuvi yangi imkoniyatlarni ochmoqda. Onlayn ta’lim platformalari, raqamli kutubxonalar va sun’iy intellekt asosida ishlovchi avtomatlashtirilgan ta’lim tizimlari ilmiy bilimlarni tez va samarali o‘zlashtirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, ilmiy hamkorlik global miqyosda jadallashib, olimlar turli mintaqalarda tadqiqot olib borish va ma’lumot almashish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar.

Biroq, raqamli texnologiyalarni joriy etishda muayyan muammolar ham mavjud. Avvalo, mintaqada raqamli tafovut sezilarli darajada bo‘lib, urbanizatsiyalashgan hududlar bilan qishloq joylari o‘rtasida texnologik imkoniyatlar keskin farqlanadi. Internet tezligi va texnik infratuzilmaning rivojlanish darajasi har bir davlatda turlicha bo‘lib, bu esa ilmiy hamkorlik va ta’lim jarayonida muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shuningdek, aksariyat oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash uchun yetarli darajada mutaxassislar va mos metodologiyalar yo‘qligi kuzatilmoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan olib qaraganda, raqamli texnologiyalar iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish va biznes muhitini yaxshilashga katta ta’sir ko‘rsatmoqda.

Masalan, elektron hukumat tizimlarining rivojlanishi davlat xizmatlarini avtomatlashtirishga va fuqarolar uchun qulaylik yaratishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot sohasidagi startaplar va innovatsion biznes loyihalar yangi ish o‘rinlarini yaratish va bozor talablariga mos ravishda yangi xizmatlar taklif qilish imkoniyatini kengaytirmoqda. Ammo, aksariyat korxonalar raqamli texnologiyalarga o‘tish jarayonida turli to‘siqlarga duch kelmoqda, jumladan, moliyaviy resurslarning yetishmovchiligi va mutaxassislarning tayyorlanish darajasining pastligi bu jarayonni sekinlashtirmoqda (1-rasm).



1- rasm. Raqamli transformatsiyaning turli sohalarga ta'siri [6]

Natijalar shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo davlatlarida raqamli transformatsiya jarayoni jadallik bilan rivojlanayotgan bo'lsa-da, uning to'liq amalga oshishi uchun tizimli yondashuv talab etiladi. Xususan, davlat siyosati doirasida raqamli infratuzilmani yaxshilash, ilmiy tadqiqotlarda texnologik innovatsiyalarni qo'llash hamda raqamli ta'lim metodlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy choralar ko'rilishi lozim. Shuningdek, ilmiy va akademik doiralarda raqamli savodxonlikni oshirish va raqamli texnologiyalardan foydalanish madaniyatini shakllantirish bu jarayonda muhim o'rin tutadi. Shu sababli, maqolada ilgari surilgan tavsiyalar asosida innovatsion texnologiyalarni ta'lim va ilm-fanga samarali integratsiya qilish bo'yicha

aniq mexanizmlar ishlab chiqilishi lozim.

Xulosa Raqamli transformatsiya Markaziy Osiyo davlatlarida ilm-fan va jamiyat rivojlanishining muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim tizimi, iqtisodiyot, davlat boshqaruvi va innovatsion biznes jarayonlarini tubdan o'zgartirmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mintaqada raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun texnologik infratuzilmani yaxshilash, raqamli savodxonlik darajasini oshirish va innovatsion yondashuvlarni tizimli joriy etish zarur. Shu bilan birga, raqamli tafovutni kamaytirish va hamma uchun teng texnologik imkoniyatlarni yaratish ham dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Mavjud imkoniyatlar bilan bir qatorda, raqamli transformatsiyaning qator muammolari ham mavjud. Jumladan, texnologik infratuzilmaning notekis rivojlanishi, internet sifati va tezligidagi tafovutlar, shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha kadrlarning yetishmovchiligi muhim to'siqlar sifatida ko'rinmoqda. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni chuqurroq o'rganish va ularni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish talab etiladi. Elektron hukumat tizimlarining rivojlanishi esa davlat xizmatlarini avtomatlashtirish va fuqarolar uchun qulay muhit yaratish imkonini beradi, ammo bu tizimlardan samarali foydalanish uchun ma'muriy va texnik ko'nikmalar ham rivojlantirilishi kerak.

Ushbu tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati shundaki, unda raqamli transformatsiyaning Markaziy Osiyodagi o'ziga xos jihatlari batafsil tahlil qilindi. Natijalarga asoslanib, mintaqadagi raqamli rivojlanishni jadallashtirish uchun aniq tavsiyalar ishlab chiqildi. Xususan, davlat siyosatida raqamli texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish va tadbirkorlik sohasida raqamli innovatsiyalarni rag'batlantirish zarur. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari kelajakdagi ilmiy ishlar uchun muhim manba bo'lib, raqamli transformatsiyaning ijtimoiy va ilmiy jihatlarni yanada chuqurroq o'rganish uchun poydevor yaratadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Castells M. The Internet Galaxy: Reflections on the Internet, Business, and Society. – Oxford : Oxford University Press, 2001.
2. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. – Geneva : World Economic Forum, 2017.
3. Абдукодиров И. Ўзбекистон иқтисодиётида рақамли трансформация ва ахборот технологияларининг ўрни. – Тошкент : Фан ва технология, 2020.
4. Alimbekova A., Nurmanova B. Raqamli ta'lim: pedagogik innovatsiyalar va zamonaviy yondashuvlar. – Ostona : Qozog'iston milliy universiteti nashriyoti, 2021.
5. Otkirovich N. S. va boshqalar. Men dunyoni o'zgartirish ordeni oldim // Ulug' Vatan urushi. – 2024. – № 54. – P. 1356–1364.
6. Shakib Kotamjani S., Shirinova S., Fahimirad M. Lecturers' perceptions of using artificial intelligence in tertiary education in Uzbekistan // Journal of Intelligence System. – 2023. – Vol. 32, № 1. –P. 1–9

UDK 159.923.2

O'ZINI O'ZI BAHOLASH TUSHUNCHASINING PSIXOLOGIK TASNIFI

Nargiza Karimova, magistrant, Toshkent shahridagi Puchon universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zini o'zi baholashga doir turli psixologik yondoshuvlar tahlil qilingan. O'zini o'zi baholash - bu nafaqat o'zini, o'zining kuchli va zaif tomonlarini baholash, balki o'z fazilatlarini va boshqa odamlar orasidagi o'rnini baholash, bu esa, o'z navbatida, shaxsning xatti-harakatlarini tartibga soluvchi eng muhim omillardan biridir.

Kalit so'zlar: O'zini o'zi baholash, o'z o'rnini, shaxsning boshqalar bilan munosabati, talabchanlik, shaxs qobiliyatlari.

Annotation. This article analyzes various psychological approaches to self-assessment. Self-assessment is not only about evaluating oneself, including one's strengths and weaknesses, but also about assessing one's qualities and position among others. This, in turn, is one of the key factors regulating an individual's behavior.

Keywords: Self-assessment, self-positioning, an individual's relationship with others, self-demand, personal abilities.

O'zini o'zi baholash o'zgaruvchan hodisa bo'lib, u insonning hozirgi kayfiyatiga bog'liq ravishda o'zgarishi mumkin. Masalan, depressiv holatlarda u pasayadi, yuqori kayfiyatda esa aksincha, oshadi. O'zini o'zi baholash – shaxs hayotining muhim mezonlaridan biri bo'lib, uning asosiy vazifasi inson hayotini tartibga solish va himoya qilishdan iborat. Tartibga solish funksiyasi shaxsiy tanlov bilan bog'liq muammolarni hal qilishga yordam beradi, himoya funksiyasi esa insonning mustaqilligi va barqarorligini ta'minlaydi. O'zini o'zi baholash insonning boshqalar bilan munosabatlari, tanqidiy fikrlashi hamda o'ziga nisbatan talabchanligi kabi ko'plab

jihatlarga ta'sir qiladi. Shuningdek, u inson faoliyatining samaradorligi va shaxsiy rivojlanish darajasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi [1].

Katta psixologik lug'atga ko'ra, o'zini o'zi baholash – bu shaxsning o'z fazilatlari, imkoniyatlari va jamiyatdagi o'rnini mustaqil ravishda tahlil qilishi va baholashidir. A.I. Lipkina fikricha, o'zini o'zi baholash insonning qobiliyatlari, imkoniyatlari, shaxsiy fazilatlari hamda tashqi ko'rinishiga nisbatan shakllangan munosabatidir. Xorijiy tadqiqotlarda shaxsning o'zi haqidagi tasavvurlari "Men-konsepsiya" tushunchasi bilan ifodalanadi. Ushbu konsepsiyada asosiy tarkibiy qism sifatida "men" obrazi yoki insonning o'ziga bo'lgan munosabati ko'rib chiqiladi. "Men" obrazi va o'zini qabul qilish natijasida shakllangan xulq-atvor reaksiyalari insonning harakatlariga ta'sir qiladi. "Men-konsepsiya"ning markaziy elementi esa xulq-atvor sanaladi [2].

Zamonaviy psixologiyada o'zini o'zi baholashning quyidagi darajalari ajratiladi:

1. adekvat;
2. ortiqcha baholangan;
3. past baholangan.

Adekvat o'zini o'zi baholash shaxsning o'z qobiliyatlari, fazilatlari va harakatlarini realistik baholashini anglatadi. Ortiqcha baholangan o'zini o'zi baholash insonning o'z imkoniyatlarini haddan tashqari yuqori baholashi bilan tavsiflanadi, past baholangan o'zini o'zi baholash esa, aksincha, insonning o'zini yetarlicha qadrlamasligi bilan bog'liq.

Mahalliy va xorijiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, insonning o'zini o'zi baholashiga eng katta ta'sirni ota-onalar va tengdoshlar bildiradi. Ayniqsa, bolalik davrida ota-onaning fikri insonning umumiy o'zini o'zi qadrlashiga sezilarli darajada ta'sir qilsa, tengdoshlarning bahosi uning qobiliyatlari haqidagi tasavvurlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bola haqidagi barcha fikrlarning yig'indisi uning o'ziga nisbatan tasavvurini shakllantiradi va o'zini qadrlash hissini rivojlantirishga yordam beradi. Insonning o'zini qadrlash darajasi uning intellektual faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, ayniqsa, o'zini past baholovchi shaxslar uchun bu juda

muhim ahamiyatga ega. O'zini o'zi past baholash haddan tashqari emotsional zo'riqishga sabab bo'lib, natijada intellektual faoliyatning sifati pasayadi.

Nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, o'zini o'zi baholash – insonning jamiyatdagi o'rni va faoliyati haqida shakllangan tasavvuridir. Bu jarayonda inson o'z fazilatlarini, his-tuyg'ularini baholaydi va shu asosda o'z harakatlarini tartibga soladi. O'zini o'zi baholash shaxsning ijtimoiy moslashuvi darajasini aniqlash, uning xulq-atvorini boshqarish va yo'naltirishda muhim rol o'ynaydi.

Adekvat o'zini o'zi baholash insonning o'z imkoniyatlarini obyektiv baholashi, tanqidiy fikrlashi, amalga oshirilishi mumkin bo'lgan maqsadlarni mustaqil belgilashi va taxminlarni sinchiklab tahlil qilib, asossiz farazlardan voz kechish qobiliyatini o'z ichiga oladi. O'zini hurmat qilishning shakllanishi o'smirlik davriga, ya'ni intellektual rivojlanishning eng jadal bosqichiga to'g'ri keladi.

O'zini o'zi baholash muammosi bo'yicha tadqiqotlar L.I. Bojovich, L.S. Vygotskiy, A.I. Lipkina, V.S. Muxina, S.L. Rubinshteyn, Z. Freyd va boshqa olimlarning asarlarida keng yoritilgan. Chet el psixologiyasida o'zini o'zi baholash "men-konsepsiya"ning tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqiladi. Bu tushuncha shaxsning o'zi haqidagi barcha tasavvurlarining yig'indisi bo'lib, ularning baholanishi bilan bog'liq deb ta'riflanadi. Mahalliy psixologlar esa o'zini o'zi baholashni inson faoliyatining muhim omili sifatida talqin qiladilar.

A.N. Leontievning ta'kidlashicha, o'zini o'zi baholash insonning shaxs sifatida shakllanishini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. U shaxs uchun motiv vazifasini bajarib, insonni o'z kutgan natijalari, atrofdagilarning talab va umidlari hamda o'zining da'volariga mos kelishga undaydi [3]. Shuningdek, inson idrok etadigan qadriyatlar o'zini o'zi baholashning asosini tashkil etadi, bu esa o'z navbatida, o'zini boshqarish va shaxsiy rivojlanish jarayonida uning xususiyatlarini belgilaydi. O'zini o'zi baholash shaxsning takomillashuv jarayonining asosiy elementi bo'lib, uning rivojlanish darajasini aks ettiruvchi muhim ko'rsatkich sifatida qaraladi. U o'zini anglash jarayonining ajralmas qismi bo'lib, insonning shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi [4].

Shuningdek, o'zini o'zi baholashning psixologik aspektlari, A.M. Prikhozhan tomonidan ham tahlil qilingan. U o'zining "Shaxs va uning rivojlanish mexanizmlari" asarida, o'zini o'zi baholashning rivojlanish bosqichlari va shaxsning o'zini anglash jarayonidagi rolini batafsil o'rgangan [5].

N.A. Makarova o'zining "Psixologiyada o'zini baholash va uning shakllanishi" nomli asarida, o'zini o'zi baholashning ijtimoiy va psixologik jihatlarini hamda uning shaxsni takomillashtirishdagi ahamiyatini yoritgan. U shuningdek, o'zini o'zi baholashni individual va ijtimoiy omillar bilan bog'laydi, hamda shaxsning o'ziga bo'lgan munosabati uning psixologik farovonligiga qanday ta'sir qilishini tahlil etadi[6].

Shu tarzda, o'zini o'zi baholash, shaxsning o'ziga xosligini va rivojlanish jarayonini belgilovchi muhim ko'rsatkich bo'lib, u shaxsiy o'sish, psixologik farovonlik va jamiyatdagi muvaffaqiyatli integratsiyaga ta'sir qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o'zini o'zi baholash ikkita shaklda namoyon bo'ladi: umumiy va xususiy (qisman, o'ziga xos, mahalliy). Ko'proq o'rganilgan jihat – shaxsiy o'zini o'zi baholash bo'lib, u insonning o'ziga xos xususiyatlari va fazilatlarini qanday baholashini aks ettiradi va yoshga qarab o'zgarib boradi. Yuqori o'zini o'zi baholash insonning maksimal faolligini, samarali faoliyat yuritishini hamda ijodiy salohiyatini amalga oshirishini ta'minlaydi. Umumiy o'zini o'zi baholashga bunday yondashuv shaxsning dunyoqarashida o'zidan norozilik va tanqidiy munosabatga o'rin qoldirmaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Molchanova O.N. Личность – Время – Самооценка. / Психология здоровья и личностного роста». – 2008. – № 4. – В. 21-32.
2. Lipkina A.I. Самооценка школьника. – М.: Знание, 1976. – 63-b.
3. Leontyev A.N. Деятельность. Сознание. Личность. – М., 1975. – 389-b.
4. Bodalev A.A. Личность и общение: Избранные психологические труды. –М.: Международная педагогическая академия, 1995. – 328-b.
5. Prikhozhan A.M. "Shaxs va uning rivojlanish mexanizmlari". – 2003.
6. Makarova N.A. "Psixologiyada o'zini baholash va uning shakllanishi" – 2005.
7. Zaharova A.V. Психология формирования самооценки / А.В. Захарова. – М.:«Прогресс», 2008. – 100-b.

UDK 371.398

O‘QITISHDA GAMIFIKATSIYA: O‘QUVCHILARNING MOTIVATSIYASINI OSHIRISH STRATEGIYALARI

Kenjayeva F.Sh., magistrant
Toshkent shahridagi Puchon universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim jarayonida gamifikatsiyaning o’rni, uning o’quvchilarning motivatsiyasiga ta’siri va samaradorligi tahlil qilinadi. Gamifikatsiya ta’limni interaktiv, qiziqarli va samarali qilishga yordam beruvchi zamonaviy yondashuvlardan biri hisoblanadi. Maqolada gamifikatsiyaning asosiy elementlari, uni qo’llash usullari hamda o’quv jarayoniga ta’siri chuqur o’rganiladi. Bundan tashqari, gamifikatsiyaning ijobiy va salbiy tomonlari, ta’lim natijalariga ta’siri va pedagogik innovatsiyalar bilan bog’liqligi ham tahlil qilinadi. Shuningdek, so’nggi uch yildagi ilmiy tadqiqotlar va gamifikatsiyaning amaliy tatbiqlari ham yoritiladi. Maqola davomida gamifikatsiyaning an’anaviy ta’lim usullari bilan taqqoslanishi va turli yosh guruhlar uchun qo’llanilish tajribalariga ham alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: gamifikatsiya, ta’lim, motivatsiya, o’quv jarayoni, interfaol metodlar, innovatsion pedagogika, raqamli ta’lim, interaktiv yondashuvlar, ta’lim texnologiyalari, kognitiv rivojlanish, ta’lim samaradorligi, virtual o’yinlar, raqamli baholash tizimi, ijodiy yondashuvlar, ta’lim psixologiyasi.

Abstract. This article analyzes the role of gamification in the educational process, its impact on students’ motivation, and its effectiveness. Gamification is considered one of the modern approaches that help make learning interactive, engaging, and efficient. The article explores the key elements of gamification, its application methods, and its influence on the learning process in depth. Additionally, both the advantages and disadvantages of gamification, its impact on educational outcomes, and its connection with pedagogical innovations are examined. Furthermore, recent scientific studies from the past three years and practical implementations of gamification are highlighted. The article also compares gamification with traditional teaching methods and focuses on its application experiences across different age groups.

Keywords: gamification, education, motivation, learning process, interactive methods, innovative pedagogy, digital education, interactive approaches, educational technologies, cognitive development, educational effectiveness, virtual games, digital assessment system, creative approaches, educational psychology.

Zamonaviy jamiyatda ta’lim sohasi tezkor rivojlanib, innovatsion yondashuvlarga bo’lgan talab ortib bormoqda. An’anaviy ta’lim metodlarining ayrim kamchiliklari, jumladan, o’quvchilarning motivatsiyasini yetarli darajada qo’llab-quvvatlay olmasligi, ularning qiziqishini susaytirishi pedagoglarni yangi usullarni izlashga undaydi. Shu boisdan, bugungi kunda gamifikatsiya o’qitish jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilinayotgan innovatsion pedagogik yondashuvlardan biri sifatida qaralmoqda – bu ta’lim jarayoniga o’yin elementlarini kiritish orqali o’quvchilarning faolligini oshirish va ularga qiziqarli muhit yaratishning samarali usullaridan biridir. Ushbu metod o’quvchilarning bilim olishga bo’lgan ishtiyoqini

kuchaytirish, ularni faol ishtirok etishga undash va dars jarayonini yanada interaktiv qilish imkonini beradi. Turli o'yin mexanizmlaridan, jumladan, ballar, reyting tizimlari, mukofotlar, qiyinchilik darajalari kabi elementlardan foydalanish orqali o'quvchilar o'z natijalarini kuzatish va rag'batlantirilgan holda rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

So'nggi yillarda dunyo miqyosida olib borilgan tadqiqotlar gamifikatsiyaning ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Xususan, gamifikatsiya o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish hamda jamoaviy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlangan. Shu bilan birga, bu metod an'anaviy ta'lim shakllari bilan uyg'unlashtirilganda yanada samarali natijalarga erishish mumkinligi ta'kidlanadi.

Ushbu maqolada gamifikatsiyaning asosiy tamoyillari, uni o'quv jarayoniga joriy etish strategiyalari va natijalari muhokama qilinadi. Bundan tashqari, gamifikatsiyaning ta'lim tizimiga ta'siri, turli yosh guruhlarida qo'llanilish tajribalari, afzalliklari va cheklovlari, shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalar asosida uning ta'lim sifatiga qo'shadigan hissasi atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada gamifikatsiyaning texnologik va pedagogik jihatlari ham ko'rib chiqilib, bu metodning kelajakdagi istiqbollari muhokama qilinadi.

Gamifikatsiyaning muvaffaqiyatli qo'llanilishi uning asosiy tarkibiy qismlariga bog'liq bo'lib, ular quyidagilardan iborat: Ballar va reyting tizimi – O'quvchilarga o'z natijalarini kuzatish va boshqa tengdoshlari bilan taqqoslash imkoniyatini yaratadi; Missiyalar va qiyinchiliklar – O'quvchilar uchun aniq topshiriqlar belgilash orqali ularning mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish; Rag'batlantirish tizimi – Mukofot va imtiyozlar orqali o'quvchilarni faolroq bo'lishga undash; Jamoaviy raqobat – O'quvchilarning jamoaviy ishlash ko'nikmalarini oshirish va ijtimoiy muhitni rivojlantirish; Qiziqarli syujet va interaktiv yondashuvlar – O'quvchilarning ta'lim jarayoniga qiziqishini oshirish uchun hikoya asosida o'yinlarni qo'llash.

Gamifikatsiya zamonaviy pedagogik innovatsiyalar bilan chambarchas bog'liq

bo'lib, u axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt yordamida yanada rivojlantirilmoqda. Masalan, adaptiv ta'lim tizimlari orqali har bir o'quvchining individual ehtiyojlariga moslashgan gamifikatsiya elementlarini ishlab chiqish mumkin. Shu bilan birga, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari yordamida o'quvchilar ta'lim jarayonini yanada jonli va qiziqarli shaklda boshdan kechirishlari mumkin.

Gamifikatsiyaning o'quv jarayoniga kiritilishi ko'plab afzalliklarga ega bo'lsa-da, uning ayrim cheklovlari ham mavjud. Afzalliklari: o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish – Gamifikatsiya orqali rag'batlantirish mexanizmi o'quvchilarning qiziqishini saqlab qolish va ularni faol o'rganishga undashga yordam beradi; interfaollik va ishtirokchilik – O'yin elementlari orqali o'quvchilar o'zaro hamkorlik qiladi va ta'lim jarayoniga faol qo'shiladi; bilimlarni mustahkamlash – Gamifikatsiya takrorlash va tajriba asosida o'rganishni rag'batlantiradi ijodiy fikrlashni rivojlantirish – O'yin elementlari o'quvchilarning muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuv qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Kamchiliklari: o'qituvchilarning gamifikatsiyalangan darslarni tayyorlashga ko'proq resurs va vaqt sarflashlari talab etiladi; texnik resurslarga bog'liqlik – Gamifikatsiya ko'pincha raqamli texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi, bu esa barcha ta'lim muassasalarida mavjud bo'lavermaydi; o'quvchilarning haddan tashqari raqobatga berilib ketishi – Raqobat ba'zi o'quvchilar uchun stress manbai bo'lishi mumkin.

So'nggi uch yilda olib borilgan tadqiqotlar gamifikatsiyaning ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi. Masalan, raqamli o'yinlar asosida yaratilgan ta'lim platformalarida o'quvchilarning darslarga jalb etilish darajasi oshganligi aniqlangan. Xalqaro tajribalarda gamifikatsiyalangan metodlarning STEM fanlarida o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilishi kuzatilmoqda.

Gamifikatsiya ta'lim jarayonida innovatsion yondashuv bo'lib, uning samarali tatbiqi o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish va bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, gamifikatsiya

elementlari qo'llanilgan ta'lim tizimlarida o'quvchilar mustaqil o'rganish ko'nikmalariga ega bo'ladilar va bilimlarni real hayotga tatbiq qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Kelajakda sun'iy intellekt, virtual reallik va interaktiv ta'lim texnologiyalari gamifikatsiya samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilishi kutilmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Hamari, J., Koivisto, J., & Sarsa, H. Gamification in education: A review of recent studies and findings // Educational Research Review. – 2021. – Vol. 34. – Article 100422.
2. Landers, R. N., & Bauer, K. N. Gamification in Online Learning Environments: A Systematic Review // Computers & Education. – 2022. – Vol. 176. – Article 104354.
3. Kapp, K. M. The Future of Gamified Learning and Its Role in Student Engagement // Journal of Educational Technology. – 2023. – Vol. 56, № 3. – P. 78-91.
4. Werbach, K., & Hunter, D. Updated Strategies for Gamification in Higher Education. – Wharton Digital Press, 2023.
5. Nicholson, S. Beyond Points and Badges: Implementing Meaningful Gamification in Learning // Interactive Learning Environments. – 2022. – Vol. 30, № 2. – P. 177-194.
6. Ryan, R. M., & Deci, E. L. Self-Determination Theory and Gamification in Learning // Journal of Motivation Studies. – 2021. – Vol. 12, № 4. – P. 289-305.
7. Kim, B. Understanding the Role of Gamification in Hybrid Learning Environments // Educational Psychology Review. – 2023. – Vol. 45, № 1. – P. 133-148.
8. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. Gamification and Its Impacts on Learning Outcomes // Learning Technologies Journal. – 2022. – Vol. 67, № 5. – P. 203-219.
9. Csikszentmihalyi, M. Flow Theory and Gamification in Modern Education. – Cambridge University Press, 2021.
10. Gee, J. P. Exploring Game-Based Learning: Opportunities and Challenges. – MIT Press, 2023.

UDK 338.004

BBK 65.36

АЛЬТЕРНАТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ:

МИРОВЫЕ ТРЕНДЫ И СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ

Ким Алексей

Университет Пучон в г. Ташкент

Аннотация. Традиционная система образования в Узбекистане активно реформируется, но параллельно с ней набирают популярность альтернативные методы обучения. Эти подходы ориентированы на развитие креативности, критического мышления и практических навыков, что соответствует мировым образовательным трендам.

Альтернативные методы обучения в Узбекистане набирают популярность, но остаются в стадии становления. Главные вызовы – необходимость адаптации международного опыта к местным реалиям, подготовка квалифицированных педагогов и обеспечение доступности таких образовательных форматов для широких слоев населения.

Тем не менее, спрос на современные образовательные подходы растёт, и можно ожидать, что в ближайшие годы рынок альтернативного образования в Узбекистане будет

стремительно развиваться, предлагая учащимся новые возможности для самореализации и профессионального роста.

Ключевые слова: система образования, STEAM-образование, геймификация, гибридные форматы.

Abstract. The traditional education system in Uzbekistan is undergoing active reforms, while alternative learning methods are gaining popularity alongside it. These approaches focus on the development of creativity, critical thinking, and practical skills, aligning with global educational trends.

Alternative learning methods in Uzbekistan are becoming more popular but are still in the process of development. The main challenges are the need to adapt international experiences to local realities, the preparation of qualified educators, and ensuring the accessibility of such educational formats to broad segments of the population.

Nevertheless, the demand for modern educational approaches is growing, and it can be expected that in the coming years, the alternative education market in Uzbekistan will rapidly expand, offering students new opportunities for self-realization and professional growth.

Keywords: education system, STEAM education, gamification, hybrid formats.

Современные образовательные системы в разных странах стремятся уйти от строгих стандартов и сосредоточиться на индивидуальном развитии каждого ученика. Среди ключевых мировых трендов можно выделить:

1. STEAM-образование (наука, технологии, инженерия, искусство и математика) — акцент на междисциплинарном подходе и решении реальных задач.

2. Проектное и проблемно-ориентированное обучение — студенты получают знания через практические кейсы, создавая реальные проекты.

3. Геймификация — использование игровых механик для вовлечения в процесс обучения.

4. Онлайн-образование и гибридные форматы — цифровые платформы, позволяющие учиться в удобное время и в индивидуальном темпе.

Самоорганизованные образовательные пространства (SOLE) — обучение без жёсткого контроля, где ученики самостоятельно исследуют темы и ищут решения[2].

В последние годы в Узбекистане начали активно развиваться альтернативные методы обучения, вдохновленные мировыми тенденциями. Среди них:

1. Частные и альтернативные школы — появляются образовательные

центры, использующие финскую, британскую, американскую модели обучения. Например, некоторые школы работают по системе IB (International Baccalaureate).

2. EdTech и онлайн-образование – растёт популярность платформ, таких как Coursera, Udemu, а также локальные стартапы в сфере онлайн-обучения.

3. Монтессори, Вальдорфская и другие методики – детские сады и школы внедряют альтернативные педагогические подходы, ориентированные на индивидуальное развитие ребёнка.

4. STEM- и IT-образование – создание технопарков, IT-школ и программ, таких как "One Million Uzbek Coders", ориентированных на цифровые компетенции.

5. Коворкинги и образовательные клубы – сообщества, где обучение строится на принципах саморазвития, обмена знаниями и наставничества.

Нами был проведен опрос. Цель исследования: выявить, какие альтернативные методы обучения наиболее востребованы среди преподавателей и студентов ташкентских университетов, а также определить уровень их внедрения и эффективность[2].

Методология: преподаватели и студенты 7 ведущих университетов Ташкента (Национальный университет Узбекистана, Ташкентский филиал МГУ, Университет Инха, Университет АМИТИ, ТАТУ).

Метод опроса: Онлайн-анкеты + интервью.

Количество респондентов: 300–500 человек (из них 150 преподавателей, 350 студентов).

Такой опрос поможет понять, какие методы обучения стоит развивать в ташкентских университетах для улучшения образовательного процесса.

Такой охват дал объективное представление о предпочтениях в альтернативном образовании среди ташкентских вузов[3].

Выводы по результатам исследования:

1. Популярность альтернативных методов обучения




Рис. 1 Распределение студентов по вузам которые участвовали в опросе (количество человек) [3]

Среди студентов наиболее востребованы гибридные форматы (онлайн + оффлайн), проектное обучение и геймификация.

Преподаватели чаще используют метод кейсов, наставничество и перевёрнутый класс, но внедрение новых методов ограничивается нехваткой ресурсов и квалифицированных специалистов.

2. Основные барьеры: низкая цифровая грамотность среди преподавателей и студентов. Финансовые ограничения – не все университеты могут инвестировать в современные технологии и обучение педагогов. Консерватизм образовательной системы, из-за чего альтернативные подходы медленно внедряются в учебные программы.

3. Будущее образования

Большинство респондентов считают, что через 5 лет доминировать будет гибридное обучение, совмещающее традиционные и цифровые методы.

Ожидается рост интереса к STEM-образованию, программированию и EdTech-решениям.

Предложения по улучшению ситуации:

1. Создание программ повышения квалификации преподавателей

Введение курсов по цифровой педагогике, проектному обучению и EdTech-инструментам.

Партнёрство с зарубежными университетами для обмена опытом.

2. Государственная поддержка альтернативного образования: разработка грантовых программ для университетов на внедрение инновационных методик.

Создание образовательных технопарков и коворкингов.

3. Развитие онлайн-образования и цифровых платформ

Стимулирование университетов к разработке собственных онлайн-курсов.

4. Стимулирование студенческих инициатив: создание клубов по интересам (стартапы, научные сообщества, IT-кружки). Вовлечение студентов в разработку образовательных проектов.

Эти меры помогут ускорить модернизацию образования в Узбекистане и создать более гибкую, инновационную систему обучения [5].

Самыми востребованными в профессиональной деятельности методами обучения являются проектное обучение, кейс-методы, перевёрнутый класс, наставничество и онлайн-обучение. Эти форматы помогают выпускникам быстро адаптироваться к реальным условиям работы, развивают ключевые навыки и делают их конкурентоспособными на рынке труда.

На основе исследования и мировых трендов можно выделить несколько образовательных методов, которые наиболее эффективно готовят студентов к реальной работе[5].

1. Проектное обучение. Развитие навыков работы в команде, управления проектами и решения реальных задач. Подготовка к реальным условиям работы в сферах IT, бизнеса, инженерии, дизайна. Часто используется в таких профессиях, как программист, инженер, дизайнер, маркетолог.

2. Метод кейсов (Case Study). Анализ и решение реальных бизнес-проблем полезен для управленцев, финансистов, юристов. Развитие аналитического и критического мышления. Часто применяется в бизнесе, праве, консалтинге, экономике.

3. Флиппед-класс (перевернутый класс). Помогает быстро адаптироваться к новым знаниям, что важно в динамичных сферах (IT, маркетинг, финансы). Развитие самостоятельного обучения – ключевой навык для современных специалистов.

4. Наставничество и менторство. Важный инструмент в карьере специалистов, особенно в стартапах, бизнесе, медицине, финансах. Ускоряет процесс адаптации в профессии.

5. Гибридное и онлайн-обучение. В современных компаниях обучение сотрудников часто проходит через онлайн-курсы, вебинары и удалённые форматы. Особенно востребовано в IT, аналитике, управлении проектами.

Список литературы

1. Мирзиёев, Ш. М. Послание Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису // Народное слово. – 23 декабря 2017 г.
2. Мировые лидеры внешней торговли на рынке услуг высшего образования: текущее состояние и перспективы // Креативная экономика. – 2013. – № 1 (13). – С. 77-83.
3. Mirziyoyev, Sh. M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
4. Указ Президента Республики Узбекистан «О Стратегии “Узбекистан-2030”» за № УП-158 от 11.09.2023 г. – Режим доступа: <https://lex.uz/ru/docs/6600404>.
5. Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Концепции административной реформы в Республике Узбекистан» за № УП-5185 от 08.09.2017 г. – Режим доступа: <https://lex.uz/docs/3331176>.
6. Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» за № УП-5847 от 08.10.2019 г. – Режим доступа: <https://lex.uz/ru/docs/4545887#4548630>.

UDK 373.2

АКТУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ЭПОХУ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Ким Н.К., магистрант
Университет Пучон в городе Ташкент

Аннотация. В представленной статье рассмотрены подходы исследователей в отношении цифровизации системы развития дошкольного образования. Ввиду увеличения детей дошкольного возраста с речевыми нарушениями, в работе представлен обзор современных цифровых ресурсов, позволяющие педагогам реализовать коррекционную работу с воспитанниками. Результатом исследования представлено описание технологий

использования цифровых ресурсов по развитию речи детей.

Ключевые слова: цифровая образовательная среда, цифровые ресурсы, дошкольное образование, дошкольники.

Annotation. The presented article examines the approaches of researchers regarding the digitalization of the preschool education development system. Due to the increase in preschool children with speech disorders, the paper provides an overview of modern digital resources that allow teachers to implement correctional work with pupils. The results of the study provide a description of technologies for using digital resources for the development of children's speech.

Keywords: digital educational environment, digital resources, preschool education, preschoolers.

В настоящее время, когда наука активно развивается и совершенствуется, происходят существенные положительные изменения в системе дошкольного образования. Кроме того, в ходе стремительных научных исследований происходит положительные изменения, которые положительно отражаются на процессе воспитания и обучения детей дошкольного возраста.

Как указывает Н.И. Пахомова, цифровая образовательная среда представляет собой открытую совокупность информационных систем, используемых в целях обеспечения различных задач образовательной деятельности. Кроме того, она выступает в качестве организованной совокупности различных средств передачи данных, информационных ресурсов, аппаратно-программного и организационно-методического обеспечения, ориентированная на удовлетворение потребностей в информационных услугах и ресурсах образовательного характера [1]. В своем исследовании автор пишет о том, что цифровая трансформация представляет собой целенаправленный процесс практического применения цифровых технологий или ресурсов в определенном сфере деятельности для дальнейшего улучшения их эффективности, оптимизации и повышения итоговых результатов.

М.П. Андросова указывает, что под цифровизацией образования следует понимать создание так называемой цифровой образовательной среды (далее – ЦОС), для которой характерны специфические особенности. Более того, создание специализированной информационной образовательной среды в рамках ЦОС способствует целенаправленному использованию различных видов информационно-коммуникационных технологий, цифровых ресурсов и т.д. [2].

Сами по себе цифровые ресурсы включают в себя разнообразные и интерактивные способы обучения, вовлекая детей в процесс освоения языка. Современные приложения и платформы могут включать интерактивные игры, аудиокниги и видеоролики, помогающие детям дошкольного возраста более лучше воспринимать новые слова и фразы, а также осуществлять коррекцию нарушений.

Следовательно, ЦОР представляют собой один из наиболее эффективных инструментов в современном образовательном процессе, поскольку они существенно облегчают доступ педагогов к информации и содержат в себе разнообразные форматы представления учебного материала, такие как видеоролики, электронные учебники и интерактивные платформы. Использование ЦОР предоставляет доступ к разнообразным языковым играм и упражнениям, которые укрепляют навыки общения, обогащая речевой запас и развивая фонематический слух. При этом, взаимодействие с цифровыми ресурсами развивает и социальные навыки, так как многие платформы включают возможность совместной работы, что способствует формированию коммуникативных умений.

При этом, своевременное овладение детьми дошкольного возраста правильной речью играет существенную роль в формировании полноценной личности ребенка и дальнейшего успешного обучения в начальной школе. Логопедические занятия с педагогов на основе ЦОР будут способствовать постепенному развитию всех компонентов речевой деятельности и подготовке к школе.

Как считает Е.В. Шакирова, используя в ЦОР в практической деятельности с целью речевого развития старших дошкольников, педагоги смогут подбирать доступный речевой материал, а также грамотно оформлять и представлять его посредством информационных и электронных ресурсов. Так, например, педагоги смогут разрабатывать речевые карты, индивидуальные задания и упражнения, конспекты занятий в электронном виде и т.д. Также могут быть созданы

мультимедийные презентации по направлению «Речевое развитие» на следующие темы: «Одежда», «Овощи и фрукты», «Домашние и дикие животные», «Профессии», «Мебель» т. д. [3].

3. **Sotsiolingvistik yondashuv.** Jamiyatdagi turli guruhlarining kommunikatsiya uslublari, muloqotning ijtimoiy normalari va madaniy kontekstlarning ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, shaxsning ijtimoiy mavqei va kommunikatsiya uslubiga bog'liq holda tilni qo'llay olish qobiliyati tahlil qilinadi.

4. **Didaktik yondashuv.** O'qitish jarayonida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishga qaratilgan metod va texnologiyalar o'rganiladi. Bu yondashuv asosan ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega.

5. **Kognitiv yondashuv.** Insonning fikrlash jarayonlari va bilish faoliyatiga asoslanib, qanday qilib samarali kommunikatsiya amalga oshirilishi tadqiq etiladi. Fikr almashish, tushunish va muhokama qilish mexanizmlari tahlil qilinadi.

6. **Interaktiv yondashuv.** Muloqot jarayoni ikki yoki undan ortiq shaxslar o'rtasida yuz beradigan faol ijtimoiy jarayon sifatida o'rganiladi. Bu yondashuvda nutqning dialogik tabiati va fikr almashish strategiyalari muhim rol o'ynaydi.

3. Kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish metodlari

Kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish uchun quyidagi metodlar qo'llaniladi:

- **Rolli o'yinlar** – real hayotga yaqin muloqot muhitlarini yaratish.
- **Munozaralar va bahslar** – fikr almashish va mantiqiy dalillar keltirish qobiliyatini shakllantirish.
- **Intervyular va suhbatlar** – muloqot ko'nikmalarini amaliy rivojlantirish.
- **Til muhitida immersiya** – chet tilini o'rganishda tabiiy muloqot muhitida o'zlashtirish.
- **Vaziyatli topshiriqlar** – muayyan sharoitda qanday kommunikatsiya qilishni o'rgatish [5].

Kommunikativ kompetentlik nafaqat til bilimiga, balki ijtimoiy, madaniy va psixologik omillarga ham bog'liq. Uning metodologik tadqiqi lingvistik,

psixolingvistik, sotsiolingvistik, didaktik, kognitiv va interaktiv yondashuvlar orqali amalga oshiriladi. Zamonaviy dunyoda samarali muloqot qobiliyati har qanday sohada muhim ahamiyat kasb etgani sababli, uni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodlarni qo'llash dolzarb masala hisoblanadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, kommunikativ kompetentlikni o'rganish metodologiyasi nafaqat ta'lim sohasida, balki ijtimoiy va kasbiy faoliyatda ham katta ahamiyatga ega. O'quvchilarni kommunikativ kompetentlikka o'rgatish uchun amaliy, psixologik va interaktiv yondashuvlar samarali bo'lishi mumkin. Shuningdek, kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish uchun turli metodlarni birlashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash zarur. O'quvchilarning nutq va muloqot ko'nikmalarini mustahkamlash uchun yanada innovatsion metodlarni ishlab chiqish va joriy etish talab etiladi. Kommunikativ kompetentlikni o'rganish, nafaqat tilni bilishni, balki insonning ijtimoiy aloqalarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishni ta'minlaydi. Uning metodologik mohiyati, turli ilmiy yondashuvlar va metodlarning uyg'unlashuvi orqali shakllanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullaeva M. A. Kommunikativnaya metodika obucheniya inoyazychnoi grammatike na nachal'nom etape yazykovogo fakul'teta (The communicative method of teaching foreign grammar at the initial stage of the language faculty): na materialakh Present Continuous i Present Perfect v angliiskom yazyke : dis. ... kand. ped. nauk. – Khudzhand, 2004. – 189 p.
2. Ochilova G. O., Akbarova S. Sh. Kasbiy kompetentlik. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2022. – 324 b.
3. Bazarov T. Yu., Erofeev A. K., Shmelov A. G. Vestnik Moskovskogo universiteta. – 2014. – № 1. – S. 87–99.
4. Aliev I. T. Uzluksiz ta'lim tizimida o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish muammolari va istiqbollari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013. – 55 b.
5. Marina O. A. Pedagogicheskoe obrazovanie i nauka. – 2014. – № 5. – S. 113.

UDK 37.011

ПОДХОДЫ К ОПРЕДЕЛЕНИЮ ПОНЯТИЯ СОЦИАЛЬНОГО ПРОЕКТИРОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Муминова З.Р., магистрант,
Университет Пучон в городе Ташкент

Набиулина Л. М., к.п.н., доцент,
Университет Пучон в городе Ташкент

Аннотация. В статье проведен анализ исследований, посвященных вопросам социального проектирования в системе образования. В частности, изучены подходы к определению понятия социального проектирования, его основных принципов, а также основной задачи.

Ключевые слова: социальное проектирование, образование, инновации, социальные изменения, социальная интеграция.

Abstract. The article analyzes the research on the issues of social design in the education system. In particular, the approaches to the definition of the concept of social design, its basic principles, as well as the main task are studied.

Keywords: social engineering, education, innovation, social change, social integration.

В условиях глобализации и стремительных изменений в социально-экономической и образовательной сферах особое внимание уделяется вопросам эффективного управления дошкольными образовательными учреждениями. На международной арене образовательные стратегии и практики, ориентированные на улучшение качества дошкольного образования, все больше основываются на принципах социального проектирования, которое позволяет комплексно подходить к решению образовательных, социальных и культурных задач. Социальное проектирование становится важным инструментом для организации устойчивых изменений, направленных на создание инклюзивной образовательной среды и удовлетворение потребностей всех участников образовательного процесса.

В Узбекистане система дошкольного образования претерпевает значительные изменения в последние годы, что связано с проведением масштабных реформ в рамках национальной стратегии по развитию образования. Принятие таких новых нормативных актов, как Закон Республики Узбекистан «О дошкольном образовании и воспитании», «Концепция развития системы дошкольного образования Республики Узбекистан до 2030 года» [1], Указ Президента Республики Узбекистан от 2 июля 2024 г. № УП-98 «О мерах по совершенствованию системы государственного управления в сфере дошкольного и школьного образования» [2] и многие другие дают импульс для развития новых моделей управления и вовлечения семьи в образовательный

процесс, в том числе открывают возможности для внедрения социального проектирования в систему дошкольного образования. Однако на сегодняшний день в Узбекистане недостаточно исследований, посвященных применению методов социального проектирования в управлении дошкольными образовательными организациями. Этот пробел необходимо заполнить, чтобы эффективно решать проблемы доступности и качества дошкольного образования, а также создавать условия для социальной интеграции и справедливости.

Социальное проектирование рассматривается как важный инструмент для решения социальных проблем, включая проблемы в системе образования. В контексте дошкольных учреждений это предполагает создание и реализацию различных программ, направленных на развитие образовательной среды, вовлечение родителей и сообществ, а также повышение качества образовательных услуг.

Рассмотрим подходы к определению социального проектирования, представленные разными авторами.

Вандышева Л.А. определяет социальное проектирование как процесс, включающий создание, организацию и реализацию социальных изменений, ориентированных на улучшение качества жизни различных социальных групп. Он подчеркивает важность включения всех заинтересованных сторон в проектирование социальных изменений, что способствует максимальной эффективности и устойчивости социальных проектов [3].

Пастухова Л.С. рассматривает социальное проектирование через призму социальной работы, подчеркивая важность этого инструмента для работы с различными социальными группами, включая уязвимые категории. В рамках ее подхода социальное проектирование определяется как системный процесс, направленный на решение конкретных социальных проблем через организацию и реализацию комплексных проектов [4].

Сурнина Т.В. акцентирует внимание на социальной инновации в контексте

социального проектирования. Она определяет социальное проектирование как целенаправленный процесс, направленный на внедрение новых решений в социальной сфере, способствующих решению общественных проблем, улучшению качества жизни и социальной интеграции [5].

Гришаева С.А. утверждает, что цифровая среда формирует новую социальную действительность: меняется структура общества, меняются принципы формирования и функционирования социальных групп, “размывается” идентичность, меняется рынок труда, образования, потребления [6]. Все эти изменения требуют осмысления с социологической точки зрения. Автор рассматривает вопросы трансформации социального неравенства в условиях цифровизации, выдвигает предположения о причинах этих трансформаций. В частности, среди причин, влияющих на появление новых форм неравенства, называются нарушение границ идентичности индивида вследствие вторжения технологических преобразований в личное пространство человека, параллельное существование виртуального (онлайн) и реального (оффлайн) пространств, многократно возросшая множественность статусов (в том числе вымышленных), виртуализация миграции, переход многих параметров из ранговых в номинальные и т.п. Цифровизация влияет и на функционирование социальных институтов, в частности, института образования.

Андреев Э.М. определяет социальное проектирование как важный инструмент социальной интеграции, направленный на устранение социального неравенства и улучшение социальной справедливости. Он акцентирует внимание на процессе проектирования, который требует учета интересов разных социальных групп и направлен на устойчивые социальные изменения [7].

Развитие современных информационных технологий, внедрение технологий искусственного интеллекта и возрастающих в связи с этим проблем в решении вопросов социализации, требуют от исследователей комплексного подхода по управлению социальными процессами. Исходя из анализа работ вышеперечисленных авторов, мы предлагаем остановиться на определении

социального проектирования как целенаправленного процесса по внедрению инновационных решений в социальной сфере для решения общественных проблем, улучшения качества жизни и социальной интеграции с учетом национальных и культурных особенностей.

Список использованной литературы

1. Постановление Президента Республики Узбекистан от 08.05.2019 г. № ПП-4312 «Об утверждении Концепции развития системы дошкольного образования Республики Узбекистан до 2030 года» // <https://lex.uz>
2. Указ Президента Республики Узбекистан от 02.07.2024 г. № УП-98 «О мерах по совершенствованию системы государственного управления в сфере дошкольного и школьного образования» // <https://lex.uz>
3. Вандышева Л. А. Социальное проектирование: теория и практика: учебное пособие. – Самара: Самарский университет, 2020. – 92 с.
4. Пастухова Л. С. Инструмент социального проектирования в системе работы с молодежью и образовании: практики применения // PolitBook. – 2015. – № 4. – С. 180–190.
5. Сурнина Т. В. Особенности инноваций в социальной сфере // Экономика и социум. – 2014. – № 4-4 (13). – С. 1131–1135.
6. Гришаева С. А. Социальные трансформации в условиях цифровой среды // Вестник Московского университета. Серия 18. Социология и политология. – 2020. – Т. 26, № 1. – С. 70–81.
7. Андреев Э. М. Социальное проектирование как основа развития общества и евразийской интеграции // Социально-гуманитарные знания. – 2019. – № 6. – С. 81–93.

UDK 37.015.7

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA YANGI XODIMLARNI RAG'BATLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

Oktyabrova Sojida Oybek qizi, magistrant,
Toshkent shahridagi Puchon Universiteti
Gaynazarova Gulbaxor Abdullayevna PhD, dotsent,
Toshkent shahridagi Puchon Universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi maktabgacha ta'lim tashkilotida yangi xodimlarning motivatsiya manbalarini aniqlash hamda ularni samarali rag'batlantirish usullarini o'rganishdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi va ta'lim jarayonining sifatli tashkil etilishi bevosita pedagoglarning kasbiy faolligi va ishga bo'lgan qiziqishiga bog'liq. Shu bois, rahbarlar tomonidan yangi xodimlarning motivatsiya manbalarini tushunish va ularni qo'llab-quvvatlash tizim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari tomonidan xodimlarning ishga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun qo'llaniladigan usullar va ularning samaradorligi misollar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari yangi pedagoglarni ishga jalb etish, ularning motivatsiyasini oshirish va jamoaga

tez moslashishiga yordam beruvchi samarali strategiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, yangi xodimlar, motivatsiya manbalari, rag'batlantirish usullari, maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari.

Abstract. The main objective of this article is to identify the sources of motivation for new employees in preschool educational institutions and to explore effective methods of encouragement. The successful operation of a preschool institution and the quality of the educational process directly depend on the professional engagement and enthusiasm of educators. Therefore, understanding the motivation sources of new employees and supporting them is a key factor in increasing the efficiency of the system.

The study analyzes the methods used by preschool institution leaders to enhance employee engagement and their effectiveness. The findings contribute to the development of effective strategies for attracting new educators, increasing their motivation, and facilitating their adaptation to the work environment.

Keywords: preschool education, new employees, motivation sources, encouragement methods, preschool institution leader.

Maktabgacha ta'lim bolalarning kelajakdagi rivojlanishi va ta'limga bo'lgan munosabatining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Bu tizimning samaradorligi, avvalo, ushbu muassasalarda faoliyat yurituvchi pedagoglarning malakasi va motivatsiyasiga bog'liq. Yangi pedagoglarning maktabgacha ta'lim tashkilotlariga moslashuvi va o'z kasbiy faoliyatini samarali olib borishi rag'batlantirish tizimiga bog'liqdir.

Motivatsiya masalasi ta'lim tizimining har qanday bosqichida dolzarb bo'lib, xodimlarning kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Motivatsiya insonning o'z qobiliyat va bilimlarini rivojlantirishga bo'lgan ichki istagi bilan chambarchas bog'liqdir. Sharq mutafakkirlari, xususan, Abu Ali ibn Sino va Abu Rayhon Beruniy ilm va ma'rifat insonning intellektual rivojlanishidagi asosiy omil ekanligini ta'kidlagan. Xuddi shu singari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yangi xodimlarni rag'batlantirish, ularning o'z kasbiy faoliyatiga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda samaradorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik faoliyatda motivatsiyaning ikki asosiy turi mavjud: ichki va tashqi motivatsiya. Ichki motivatsiya pedagogning o'z kasbiy rivojlanishiga bo'lgan qiziqishi, yangi bilimlarga intilishi va ta'lim jarayoniga qiziqishidan kelib chiqadi. Masalan, Ryan va Desi ta'kidlaganidek, ichki motivatsiya insonning o'z ishi orqali qoniqish hosil qilishidan iborat. Ichki motivatsiyaga ega bo'lgan pedagoglar o'z

faoliyatidan qoniqish oladilar, o'z kasbiy bilim va ko'nikmalarini oshirishga intiladilar. Tadqiqotlarga ko'ra, ichki motivatsiyaga ega bo'lgan pedagoglarning dars o'tish sifati yuqori bo'lib, ular innovatsion metodlarni faol qo'llaydilar. Tashqi motivatsiya esa moddiy rag'batlantirish, jamoatchilik e'tirofi va mehnat sharoitlari kabi tashqi omillar orqali rag'batlantiriladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tashqi motivatsiya quyidagi yo'nalishlarda qo'llanilishi mumkin:

Moddiy rag'batlantirish – maosh, bonus, mukofotlar;

Nomoddiy rag'batlantirish – e'tirof, ijtimoiy maqomni oshirish;

Professional o'sish imkoniyatlari – o'qituvchilar uchun kurslar, ilmiy konferensiyalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18-sentabrdagi PQ-3955-sonli qaroriga ko'ra, maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, pedagog kadrlarni uzluksiz rivojlantirish va ularning malakasini oshirish muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. Maktabgacha ta'lim tashkilotida yangi xodimlarni rag'batlantirishning samarali usullaridan biri ularning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashdan iborat. Xorij psixologlari ta'kidlaganidek, xodimlarning motivatsiyasini oshirish uchun ularning kasbiy rivojlanish imkoniyatlari va individual ehtiyojlarini inobatga olish zarur. Buning uchun maktabgacha ta'lim muassasalari quyidagi strategiyalarni qo'llashi mumkin:

- Mentorlik tizimi: Yangi pedagoglarni tajribali ustozlarga biriktirish ularning kasbiy rivojlanishi va ta'lim tizimiga tezroq moslashishiga yordam beradi. Xorijiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mentorlik tizimi pedagoglarning kasbiy o'sishida muhim rol o'ynaydi.

- Moddiy rag'batlantirish: Yangi pedagoglarning ishga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun moddiy rag'batlantirish muhimdir. Bunga maosh oshirish, mukofot pullari, ijtimoiy imtiyozlar kiritilishi mumkin. Yetakchi davlatlar (Finlyandiya, Singapur, Yaponiya, AQSh, Kanada) tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar uchun yuqori maoshlar, jamiyatda nufuzli mavqe, dars berishda mustaqillik hamda doimiy kasbiy rivojlanish imkoniyatlari yaratish muhim.

- Ijtimoiy maqom va e'tirof: Yangi pedagoglarning motivatsiyasini oshirish uchun ularning yutuqlari ommaviy e'tirof etilishi, kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyatlari ta'kidlanishi lozim. UNESCO, Jahon banki va OECD kabi xalqaro tashkilotlar ham o'qituvchilarning kasbiy maqomini oshirish, malakasini muntazam takomillashtirish va samarali rag'batlantirish tizimlarini joriy etishni tavsiya etadi. Umuman olganda, o'qituvchilar mehnatini qadrlaydigan, ularga qulay sharoit va motivatsiya beradigan tizimlar ta'lim sifati yuqori bo'lishiga xizmat qiladi.

- Innovatsion yondashuvlar: Zamonaviy ta'lim tizimida pedagoglarni rag'batlantirishning innovatsion usullari mavjud:

Gamifikatsiya – ta'lim jarayoniga o'yin elementlarini qo'shish orqali pedagoglarning qiziqishini oshirish.

Differensial yondashuv – har bir pedagogning qobiliyatiga mos motivatsiya shakllantirish.

O'zaro tajriba almashish – pedagoglarning o'zaro tajriba almashishiga sharoit yaratish.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchilar motivatsiyasini oshirishga qaratilgan eng muvaffaqiyatli yondashuvlar kompleks xarakterga ega. Yetakchi davlatlar tajribasi ko'rsatmoqdaki, o'qituvchilarga munosib maosh to'lash, ularga aniq martaba o'sishi va malaka oshirish imkoniyatlarini berish, hamda do'stona va qo'llab-quvvatlovchi ish muhitini yaratish kabi choralar birgalikda qo'llangandagina yuqori samara beradi. Shu bilan birga maktabgacha ta'lim tashkilotida yangi xodimlarni rag'batlantirish samaradorligini oshirish uchun ichki va tashqi motivatsiya omillaridan kompleks foydalanish zarur. Ichki motivatsiyani rivojlantirish uchun pedagoglarning kasbiy qiziqishini oshirish, ularning ijodiy va innovatsion faoliyatiga imkon yaratish muhim. Tashqi motivatsiya esa moddiy va nomoddiy rag'batlantirish tizimi orqali qo'llab-quvvatlanishi lozim. ifatli ta'lim uchun aynan shunday motivatsiyalangan, malakali va qo'llab-quvvatlangan o'qituvchilar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, tadqiqotlar motivatsiyasi yuqori bo'lgan pedagoglar o'qituvchilarning o'qish natijalarini sezilarli darajada yaxshilashini tasdiqlagan. Demak, o'qituvchilar mehnatini to'g'ri

ragʻbatlantirish va qoʻllab-quvvatlash orqali taʼlim sifati hamda natijadorligiga ijobiy taʼsir koʻrsatish mumkin.

Adabiyotlar roʻyxati

1. Kolleck N. Motivational aspects of teacher collaboration // *Frontiers in Education*. – 2019. – Article number 122.
2. Nemashkalo K., Myronova O., & Kipa D. Management of investment processes in social capital: A conceptual approach to assessment // *Periodicals of Engineering and Natural Sciences*. – 2019. – Vol. 7, № 2. – B. 478–486.
3. Hasanov O. T. Oʻqituvchilarni ragʻbatlantirish tizimining oʻziga xos jihatlari // *Pedagogika va psixologiya ilmiy jurnali*. – 2020. – T. 3, № 4. – B. 61–68.
4. Souders B. The science of improving motivation at work // *Positive Psychology*. – 2020. – Retrieved from <https://positivepsychology.com/improving-motivation-at-work/>
5. Melnyk A., Lepyeko T., Myronova O., & Mazorenko O. Formation of organizational culture: Motivative approach // *Estudios de Economía Aplicada*. – 2021. – Vol. 39, № 7. – B. 1–12.
6. Usher E. L. Contextualizing teacher motivation research // *Learning and Instruction*. – 2021. – Vol. 76. – Article number 101544.
7. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Oʻzbekiston Respublikasi maktabgacha va umumiy oʻrta taʼlim tizimini rivojlantirish boʻyicha 2030-yilgacha boʻlgan strategiya // *Respublika Qonun hujjatlari toʻplami*. – 2022. – T. 12, № 7. – B. 15–27.

UDK 376.42

DIQQAT TANQISLIGI SINDROMLI BOLALARNING MAKTABGA TAYYORLANISH JARAYONIDA RAGʻBATLANTIRUVCHI MUHIT YARATISH VA INTERAKTIV OʻYINLAR VA METODLARNI QOʻLLASH

Omonova M. M., magistrant,
Toshkent shahridagi Puchon universiteti
Melibayeva R. N., DSc, doctor,
Toshkent shahridagi Puchon universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada diqqat tanqisligi sindromli (DTS) bolalarning maktabga tayyorlanish jarayonida samarali usullar va ragʻbatlantiruvchi muhit yaratish masalalari koʻrib chiqiladi. DTS bolalarining diqqatini jamlash, oʻrganish jarayoniga jalb qilish va qiziqishini saqlab qolish uchun interaktiv oʻyinlar hamda zamonaviy pedagogik metodlarni qoʻllashning samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, DTS bolalari uchun individual yondashuv va taʼlim muhitining moslashtirilishi muhimligi yoritiladi. Tadqiqot natijalari DTS bolalariga nisbatan qoʻllaniladigan taʼlim strategiyalarini takomillashtirishga yoʻnaltirilgan.

Kalit soʻzlar: Diqqat tanqisligi sindromi, interaktiv metodlar, ragʻbatlantiruvchi muhit, maktabga tayyorgarlik, taʼlim texnologiyalari.

Abstract. This article examines effective methods and the creation of a motivating environment in the process of preparing children with Attention Deficit Syndrome (ADS) for school. The effectiveness of using interactive games and modern pedagogical methods to focus the attention of ADS children, engage them in the learning process, and maintain their interest is analyzed.

Additionally, the importance of individualized approaches and the adaptation of the learning environment for ADS children is discussed. The results of the study aim to improve the educational strategies applied to ADS children.

Keywords: Attention Deficit Syndrome, interactive methods, motivating environment, school readiness, educational technologies.

Diqqat tanqisligi sindromiga (DTS) ega bo‘lgan bolalarni maktabga tayyorlash masalasi bugungi kunda butun dunyo bo‘ylab dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Chunki bu bolalar uzoq vaqt davomida diqqatini bir joyga jamlashda qiyinchiliklarga duch kelishadi, bu esa ularning o‘quv jarayonidagi natijalariga salbiy ta‘sir qilishi mumkin. Shu sababli, DTSga ega bolalarni maktabgacha ta‘lim bosqichida to‘g‘ri yondashuvlar orqali tayyorlash muhim ahamiyatga ega.

DTS bolalariga xos pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu bolalar uchun erta bosqichda maxsus aralashuvlar — diqqatni jalb etuvchi o‘yinlar va maxsus o‘quv mashg‘ulotlari orqali diqqat qobiliyatini rivojlantirish muhimdir. Shu bilan birga, DTS bolalariga mos keladigan ta‘lim muhiti yaratish, masalan, kichik guruhlarda mashg‘ulotlar o‘tkazish yoki ularga moslashtirilgan o‘quv materiallaridan foydalanish, ularning akademik muvaffaqiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, DTSga ega bolalarning individual o‘quv ehtiyojlarini chuqur anglash va ta‘lim jarayonini ular uchun moslashtirish muhim hisoblanadi. Ushbu pedagogik yondashuvlar nafaqat bolalarning o‘qish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, balki ularning ijtimoiy moslashuvi va hissiy barqarorligini ta‘minlashga ham xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasi ularning keyingi ta‘lim jarayonidagi muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Diqqat tanqisligi sindromi bo‘lgan bolalar esa maktab muhitiga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Shuning uchun ham DTS bolalariga mos keladigan rag‘batlantiruvchi muhit yaratish va ularning ta‘lim jarayoniga faol jalb etilishini ta‘minlash dolzarb masalalardan biridir.

Dunyo miqyosida diqqat tanqisligi sindromiga (DTS) chalingan bolalarni davolash va ularga ta‘lim berish bo‘yicha turli tadqiqotchilar tomonidan izlanishlar olib

borilmoqda. Yevropa olimlarining statistik ma'lumotlariga ko'ra, AQShda millionlab bolalarga ushbu sindrom tashxisi qo'yilgan. Amerika Qo'shma Shtatlari mutaxassislarining fikricha, DTS jamiyatning 3-5 foizida, jumladan, bolalar va kattalar orasida ham uchraydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu sindrom, asosan, o'g'il bolalarda ko'proq kuzatiladi. Diagnostika mezonlari, tadqiqot metodikasi va o'rganilgan guruhlariga (shifokorga murojaat qilgan bolalar, maktab o'quvchilari, umumiy aholi) qarab, o'g'il bolalar va qizlar orasidagi nisbat 3:1 dan 9:1 gacha farqlanadi. Diqqat tanqisligi sindromli bolalarni maktabga tayyorlash mavzusi xalqaro miqyosda keng tadqiq etilgan bo'lib, ko'plab olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Dunyo miqyosida diqqat tanqisligi sindromi (DTS) bo'lgan bolalarning ta'lim jarayonidagi qiyinchiliklari bo'yicha turli ilmiy asarlar yaratilgan.

Xorijiy mutaxassislardan Russell A. Barkley DTS sohasida yetakchi tadqiqotchilardan biri hisoblanadi. U diqqat tanqisligi va giperfaollik sindromini pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilib, bunday bolalar bilan samarali ishlash usullarini ishlab chiqqan [1]. George J. DuPaul esa DTS bo'lgan bolalar uchun maxsus o'quv strategiyalarini ishlab chiqishga e'tibor qaratib, o'quv muhitini to'g'ri tashkil etish va individual yondashuvlarni shakllantirish bo'yicha tadqiqotlar olib brogan [2]. Joseph Biederman DTS ning bolalar akademik natijalariga ta'sirini tahlil qilib, ushbu sindromning rivojlanish xususiyatlari va pedagogik yordam zaruriyatini o'rganib chiqqan [3].

Shuningdek, Child Mind Institute qoshidagi DYGS va Xulq-atvor buzilishlari markazining klinik psixologi, psixologiya fanlari doktori Karolina Mendel diqqat tanqisligi sindromi bo'lgan bolalar uchun ularning qiziqishlariga mos ta'lim usullarini qo'llashni tavsiya qiladi [4]. Uning fikriga ko'ra, bunday bolalar muayyan mavzularga chuqur diqqat qaratish qobiliyatiga ega bo'lsa-da, ular uchun zerikarli yoki unchalik jozibador bo'lmagan materiallarga e'tibor qaratish qiyin kechadi.

MDH davlatlari olimlari ham DTS bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Masalan, Rossiyalik olim O.A. Baranov DTS bo'lgan bolalarning o'quv jarayoniga moslashuvi va ularga maxsus pedagogik yondashuvlar qo'llash muhimligini ta'kidlaydi [5]. E.A.

Sergienko esa DTS bolalarining aqliy va psixologik rivojlanishini tahlil qilib, ularga pedagogik yordam berishning ahamiyatini o'rganib chiqqan. Bundan tashqari, Harutyunyan K.A. va Boychenko T.E. tomonidan "Bolalarda diqqat yetishmasligi giperaktivligi buzilishi" mavzusida ilmiy asarlar yaratilgan. P.Ya. Galperin, T. Ribo, D.N. Uznadze, Ch. Sherrington va A.A. Uxtomskiy kabi olimlar ham DTS bilan bog'liq tadqiqotlarni amalga oshirgan [6].

O'zbekistonda ham DTSga oid tadqiqotlar olib borilgan. S.X. Jalilova, N.A. G'ayibova, D.A. Nurkeldiyeva, M.U. Hamidova, A.R. Madazizova kabi olimlar DTSning kelib chiqishi, rivojlanish jarayoni va uni pedagogik nuqtayi nazardan o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. R. Melibaeva esa DTSning psixologik va tibbiy jihatlarini tadqiq qilib, uning sabablarini aniqlash bo'yicha ish olib borgan.

Umuman olganda, DTS mavzusi nafaqat g'arb olimlari, balki MDH va O'zbekiston tadqiqotchilari tomonidan ham keng miqyosda o'rganilmoqda. Ushbu ilmiy izlanishlar DTS bo'lgan bolalarni ta'lim jarayoniga samarali moslashtirish va ularga individual pedagogik yondashuvlar ishlab chiqish bo'yicha muhim nazariy va amaliy asoslar taqdim etmoqda.

DTSga ega bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash muayyan mezonlarga asoslanadi. Ushbu jarayonda bolalarning jismoniy, aqliy, ruhiy, irodaviy va ma'naviy tayyorgarligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Bu ularning maktab ta'limida ortiqcha zo'riqmasligi, o'qish jarayonining samarali va uzluksiz kechishiga xizmat qiladi. DTS hali ham bahsli va munozarali ruhiy buzilishlardan biri sanaladi. Eng keng tarqalgan shakllari orasida bolalik davriga xos qoldiq nevrologik (psixologik) buzilishlar mavjud bo'lib, ularga faqat DTS emas, balki nevrozlar, tik kasalliklari (motor yoki ovoz tiklari) hamda enurez ham kiradi. Turli manbalarga ko'ra, 3 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalarning taxminan 20 foizida ushbu holatlar kuzatiladi. Bunday kasalliklarga chalingan bolalar soni yildan-yilga ortib bormoqda.

Diqqat tanqisligi sindromi (DTS) dunyo bo'ylab keng tarqalgan neyro-rivojlanish buzilishlaridan biri bo'lib, u bolalarning ta'lim olish jarayonida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. DTS bo'lgan bolalar diqqatini uzoq vaqt ushlab

turishda, topshiriqlarni bajarishda hamda xulq-atvorni boshqarishda muammolarga duch keladilar. Shu sababli, DTS bolalarini maktabga tayyorlashda rag‘batlantiruvchi muhit yaratish va interaktiv o‘yin hamda metodlardan foydalanish juda muhimdir. DTS bolalari diqqatni jamlashda qiyinchiliklarga duch kelishlari bilan birga, impulsiv xatti-harakat va giperfaollik alomatlarini ham namoyon qilishi mumkin. Bunday bolalar uchun an’anaviy o‘quv jarayoni samarali bo‘lmasligi sababli, ularning ehtiyojlariga mos pedagogik yondashuvlar ishlab chiqish zarur.

Diqqat tanqisligi sindromli (DTS) bolalarni ta’lim jarayoniga jalb qilish va ularning o‘quv samaradorligini oshirish maqsadida rag‘batlantiruvchi muhit yaratish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, DTS bolalari uchun maxsus pedagogik yondashuvlarni qo‘llash ularning o‘quv jarayoniga moslashishiga hamda akademik va ijtimoiy muvaffaqiyatini oshirishga xizmat qiladi. DTS bolalari aniq jadval va vizual ko‘rsatmalarga asoslangan ta’lim muhitida yaxshiroq o‘zlashtirishga moyil. Tadqiqotlar natijasida shuni ko‘rish mumkinki, bunday yondashuv ularning diqqatini barqarorlashtirishga yordam beradi, stress va noaniqlik hissini kamaytiradi, shuningdek, qoidalar asosida harakat qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi. DTS bolalari uchun mashg‘ulot davomiyligini qisqartirish va kinestetik hamda vizual metodlardan foydalanish ularning ta’lim jarayonidagi ishtirokini oshirishga olib kelgan. Tadqiqot ishtirokchilari orasida o‘tkazilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, darslarning interaktiv va qisqa formatda o‘tilishi ularning materialni o‘zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshirgan.

Bolalarning motivatsiyasini oshirish uchun rag‘batlantirish tizimi joriy qilinganda, ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishi ortgani kuzatildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mukofotlash tizimi (og‘zaki maqtov, ball tizimi, kichik sovg‘alar) DTS bolalarida ichki motivatsiyaning shakllanishiga va o‘quv materiallarini yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam berdi.

Sensor muhit (jismoniy faollikka yo‘naltirilgan o‘yinlar va maxsus sensor burchaklar) DTS bolalarining ortiqcha energiyasini chiqarishiga yordam berdi va ularning guruhdagi xatti-harakatlarini barqarorlashtiradi. Kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki,

bunday muhitni tashkil qilish bolalarning stress darajasini kamaytirgan va diqqatni jamlash qobiliyatini oshirgan.

DTS bolalarining diqqatini jamlash va o'quv jarayoniga jalb qilish uchun interaktiv o'yinlardan samarali foydalanish muhim. Bunda quyidagi o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- Rol o'yinlari – Ijtimoiy moslashuv va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynagan. Tajriba davomida ushbu metod qo'llanilgan guruhlarda bolalar o'z fikrlarini aniq ifodalash, muammolarni hal qilish va guruhda ishlash ko'nikmalarini yaxshiladi.
- Sensor o'yinlar – Stressni kamaytirish va diqqatni jamlashga yordam berdi. O'yinlarda muntazam ishtirok etgan bolalar sinf ichida tinchroq bo'lishi va o'z harakatlarini yaxshiroq boshqarishi kuzatildi.
- Qisqa topshiriqli o'yinlar – Dinamik va qiziqarli mashg'ulotlar bolalarning o'quv jarayonidagi ishtirokini oshirishga xizmat qilgan. Uzoq davom etuvchi vazifalar bilan solishtirilganda, qisqa topshiriqli o'yinlar bolalarning diqqatini uzoqroq jamlashga yordam berdi.
- Harakatli o'yinlar – Ortiqcha energiyani chiqarishga xizmat qilgan va ta'lim jarayonidagi e'tibor yetishmovchiligini kamaytirdi.
- Interaktiv texnologiyalar – Ta'limiy ilovalar va video o'yinlar DTS bolalarining bilim olish jarayonini osonlashtirdi. Guruhda vizual va interaktiv metodlarni qo'llash natijasida o'quv materiallari yodda yaxshiroq saqlanib qoldi.

Umuman olganda, DTS bolalari uchun maxsus ishlab chiqilgan pedagogik yondashuvlar ularning ta'lim jarayoniga moslashishiga, o'quv materiallarini yaxshiroq o'zlashtirishiga va ijtimoiy muhitda o'zini erkin his qilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Ushbu metodlarning qo'llanishi DTS bolalari uchun samarali ta'lim muhitini yaratish yo'lida muhim qadam bo'ldi.

DTS bo'lgan bolalarni maktabga tayyorlashda rag'batlantiruvchi muhit yaratish va interaktiv o'yin hamda metodlardan foydalanish ularning ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli moslashishiga xizmat qiladi. Maxsus pedagogik yondashuvlar va

moslashuvchan o‘quv strategiyalari yordamida DTS bolalarining akademik va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bunday yondashuv DTS bolalarining ta‘lim olishini yengillashtirib, ularning kelajakda jamiyatga moslashgan shaxs bo‘lib shakllanishiga zamin yaratadi.

Shuningdek, DTS bolalarining ta‘lim olishini yengillashtirishda, tarbiyachilar, ota-onalar va ijtimoiy mutaxassislar hamkorligini ta‘minlash muhim ahamiyatga ega. Ta‘lim muassasalarida bunday bolalarning ijtimoiy integratsiyasini qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus treninglar va psixologik yordam dasturlari tashkil etilishi kerak. Bu, nafaqat bolalarning jamiyatga moslashishini tezlashtiradi, balki ularning kelajakda muvaffaqiyatli va baxtli shaxs bo‘lib shakllanishiga zamin yaratadi.

Bundan tashqari, DTS bolalari uchun o‘quv jarayonini individual tarzda tashkil etish, ularning har birining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularga tayyorlov o‘quv dasturlarini taqdim etish lozim. Bu dasturlar yordamida, ular nafaqat akademik ko‘nikmalarni, balki mustahkam ijtimoiy qobiliyatlarni ham o‘zlashtiradilar. Yana bir muhim jihat shundaki, tarbiyachilar va pedagoglar tomonidan ularga o‘zgaruvchan va moslashuvchan ta‘lim strategiyalarini tatbiq etish orqali, ularning individual ehtiyojlari va imkoniyatlariga qarab o‘quv jarayonini samarali boshqarish mumkin.

Shu bilan birga, DTS bolalarining ta‘lim olish jarayonida doimiy ravishda o‘qituvchi va psixologlarning o‘zaro yaqin aloqada bo‘lishi, bu bolalarning o‘zlarining imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishlariga va o‘ziga ishonchlarini oshirishlariga yordam beradi. Ularning shaxsiy yutuqlarini rag‘batlantirish, ijobiy natijalar va muvaffaqiyatlar bilan taqdirlash, ularga o‘z potentsiallarini anglashga imkon yaratadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “Maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-4312-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta‘lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-sonli qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda “Boshlang‘ich ta’limga bolalarni majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o‘tish bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 999-sonli qarori // Lex.uz. URL: <https://lex.uz/>.
6. Barkley R. A. Attention-deficit hyperactivity disorder: A handbook for diagnosis and treatment. – New York: Guilford Publications, 2015. – 898 p.
7. DuPaul G. J., Weyandt L. L., Janusis G. M. DTS in the classroom: Effective intervention strategies // Theory Into Practice. – 2011. – Vol. 50, № 1. – P. 35–42.
8. Raggi V. L., Chronis A. M. Interventions to address the academic impairment of children and adolescents with DTS // Clinical Child and Family Psychology Review. – 2006. – Vol. 9, № 2. – P. 85–111.
9. Murray D. W., Merson M. E., Hentges R. F. Individualized education and DTS: Challenges and best practices for teaching // Journal of School Psychology. – 2020. – Vol. 58. – P. 45–60.
10. Khasanova M. Integration of modern educational technologies into the educational process for instilling national values in preschool educational institution children [Elektron resurs] // Nordic Journal of Research. – 2024. // <https://research.nordicuniversity.org>.
11. Xasanova M. Innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini oshirish // Modern Science and Research. – 2024. – Vol. 3, № 1. – P. 1–2. // <https://inlibrary.uz>.
12. Xasanova M. S. Q. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimining rivojlanish tendensiyalari // Eurasian Journal of Academic Research. – 2024. – Vol. 4, № 7S. – P. 412–414. – DOI: 10.5281/zenodo.13291832.

UDK: 37.031.2

TA'LIM TIZIMIDA BOSHQARUV FAOLIYATINING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Rafiyeva Nargiza Ergashevna

Toshkent shahridagi Puchon Universiteti

70410801-Ta'lim muassasalari boshqaruvi yo'nalishi

1- bosqich C-guruh magistranti

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi ta'lim tizimida boshqaruv faoliyatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o'rganiladi. Ta'lim muassasalarida rahbarlarning boshqaruv uslubi, jamoaning psixologik holati va muhitining ta'lim samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida samarali boshqaruv usullarini qo'llash bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, boshqaruv, ijtimoiy psixologiya, rahbarlik, jamoa psixologiyasi, samaradorlik.

Abstract. This thesis studies the socio-psychological characteristics of management activities in the education system. The influence of the management style of leaders in educational institutions, the psychological state and environment of the team on the effectiveness of education is analyzed. Based on the results of the research, recommendations are given on the use of effective management methods.

Keywords: education system, management, social psychology, leadership, team psychology, effectiveness.

Zamonaviy ta'lim tizimida samarali boshqaruv muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik jamoa va ta'lim muassasasining umumiy rivojlanishi rahbarning boshqaruv uslubi, psixologik yetukligi va jamoani boshqarish qobiliyatiga bog'liq. Ushbu maqolada ta'lim tizimidagi boshqaruv faoliyatining ijtimoiy-psixologik jihatlari tahlil qilinadi.

Ta'lim tizimidagi boshqaruv murakkab jarayon bo'lib, samarali qaror qabul qilish, yetakchilik va muvofiqlashtirish uchun ijtimoiy va psixologik omillarni o'z ichiga oladi. Ta'lim muassasasining muvaffaqiyati ko'p jihatdan rahbarlarning psixologik xususiyatlari va ijtimoiy ko'nikmalariga bog'liq. Quyida ta'lim sohasida boshqaruv faoliyatining asosiy ijtimoiy-psixologik xususiyatlari keltirilgan.

Ta'lim rahbarlari (masalan, maktab direktorlari, kafedra mudirlari, dekanlar) turli boshqaruv uslublaridan foydalanib, ish muhiti va samaradorlikka ta'sir o'tkazadi. Eng keng tarqalgan yetakchilik uslublari quyidagilardir:

- Transformatsion yetakchilik – O'qituvchilarni ilhomlantiradi va o'quv jarayonini yaxshilashga undaydi.

- Tranzaksion yetakchilik – Intizom va samaradorlikni ta'minlash uchun rag'bat va jazolarga tayanadi.

- Demokratik yetakchilik – Qaror qabul qilishda ishtirokni rag'batlantiradi va hamkorlikni kuchaytiradi.

- Avtoritar yetakchilik – Qattiq nazorat va yakka qaror qabul qilish tamoyiliga asoslanadi.

Samarali ta'lim rahbarlari odatda emosional intellekt, moslashuvchanlik, chidamlilik va o'ziga ishonch kabi psixologik fazilatlarga ega bo'lishlari kerak.

Ta'lim boshqaruv faoliyatining asosiy jihatlaridan biri samarali muloqot qilishdir. Rahbarlar:

- O'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalar bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yishlari kerak.

- Faol tinglash orqali muammolar va takliflarni tushunishlari lozim.

- Nizolarni konstruktiv tarzda hal qilishlari zarur.

- O‘qituvchilar va o‘quvchilarga aniq va rag‘batlantiruvchi fikr-mulohazalar berishlari kerak.

Rahbarlarning asosiy vazifalaridan biri o‘qituvchi va o‘quvchilarni ruhlantirishdir. Ular:

- O‘qituvchilarning mehnatini tan olib, rag‘batlantirish orqali qoniqish hissini oshirishlari kerak.

- Hamkorlik va ijodkorlikni rag‘batlantiruvchi ijobiy psixologik muhit yaratishlari lozim.

- O‘quvchilarni ichki motivatsiya orqali o‘qishga qiziqtirishlari zarur.

Qaror qabul qilish va muammolarni hal etish

Ta‘lim muassasalari rahbarlari doimiy ravishda murakkab muammolar bilan shug‘ullanishlari kerak. Buning uchun ularda quyidagi ko‘nikmalar bo‘lishi lozim:

- Tahliliy fikrlash – Ma‘lumotlar va fikr-mulohazalarni tahlil qilib, asosli qarorlar qabul qilish.

- Emosional intellekt – Xodimlar va o‘quvchilarning hissiy va psixologik ehtiyojlarini tushunish.

- Nizolarni boshqarish – O‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalar o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni hal qilish.

Psixologik bardoshlilik va stressni boshqarish

Ta‘lim muassasasini boshqarish o‘qituvchilar faoliyati, o‘quvchilarning natijalari va tashqi tartib-qoidalar bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli katta stress keltirishi mumkin. Shuning uchun rahbarlarda:

- Stressga chidamlilik – Ish bosimi va kutilmagan muammolarni yengib o‘tish qobiliyati bo‘lishi kerak.

- Moslashuvchan strategiyalar – Masalan, vazifalarni delegatsiya qilish, ustuvorliklarni belgilash va xotirjamlikni saqlash.

- Ish va shaxsiy hayot muvozanati – Rahbarning shaxsiy hayoti va kasbiy faoliyatini uyg‘unlashtirish.

Jamoaviy munosabatlar va guruh dinamikasi

Ta'lim muassasalari ijtimoiy tashkilot sifatida ishlaydi va bunda jamoaviy hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Rahbarlar:

- O'qituvchilar o'rtasida hamkorlik muhitini yaratishlari kerak.
- Guruh dinamikasini tushunish va muammolarni oldindan bartaraf qilishlari zarur.
- Birgalikda qaror qabul qilishni rag'batlantirish orqali o'qituvchilarning jalb etilishini oshirishlari kerak.

Ta'lim siyosatidagi o'zgarishlar, raqamli texnologiyalar joriy etilishi va jamiyatdagi o'zgarishlar rahbarlardan:

- Innovatsiyalar va o'zgarishlarga ochiq bo'lishni talab qiladi.
- Ishontiruvchi muloqot orqali jamoani yangiliklarga moslashtirish.
- O'zgarishlarga qarshilikni bartaraf qilish uchun o'qituvchilarni isloh jarayoniga jalb qilish.

Natijalarga asoslanib, ta'lim tizimida boshqaruvning ijtimoiy-psixologik jihatlari bo'yicha muhim xulosalar chiqarildi. Rahbarning psixologik bilimlari va emotsional intellekti yuqori bo'lsa, bu pedagoglarning motivatsiyasi va ta'lim sifatining oshishiga xizmat qiladi. Shuningdek, ochiq muloqot va ishonch muhitining mavjudligi ta'lim muassasasining umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim tizimidagi boshqaruv faqat ma'muriy ko'nikmalarga emas, balki ijtimoiy va psixologik jihatlarga ham bog'liq. Samarali rahbar bo'lish uchun ta'lim boshqaruvchilari emosional intellekt, samarali muloqot, motivatsiya, nizolarni hal qilish va o'zgarishlarga moslashish kabi qobiliyatlarga ega bo'lishlari lozim. Psixologik omillarni chuqur tushunish orqali rahbarlar o'qitish va o'rganish jarayonlarini yanada samarali tashkil etishlari mumkin.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

ta'lim muassasalari rahbarlari uchun psixologik treninglar va boshqaruv ko'nikmalarini oshirish bo'yicha dasturlar tashkil etilishi lozim;

jamoaviy muhitni rivojlantirish va pedagoglarning motivatsiyasini oshirish uchun innovatsion boshqaruv yondashuvlari qo'llanilishi kera;

ta'lim tizimida rahbarlik faoliyatining ijtimoiy-psixologik jihatlarini chuqur o'rganish va takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Axliddinov R. Maktabni boshqarish san'ati. – Toshkent, 2010.
2. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. – Toshkent, 2007.
3. Po'latov Sh. Ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini boshqarish. – Toshkent, 2018.
4. Асмолов А. Г., Гусельцева М. С. Генерирование возможностей: от человеческого капитала – к человеческому потенциалу // Образовательная политика. – 2019. – № 4 (80). – С. 6–17. – URL: <https://edpolicy.ru/opportunity-generation> (дата обращения: 11.01.2021). – Рез. англ.
5. Толочек В. А. «Психологические ниши»: топос и хронос в детерминации профессиональной специализации субъекта // Вестник Московского университета. Сер. 14: Психология. – 2019. – № 1. – С. 195–213. – DOI: 10.11621/vsp.2019.01.195. – URL: http://msupsyj.ru/pdf/vestnik_2019_1/vestnik_2019-1_11_Tolochek.pdf (дата обращения: 09.02.2021). – Рез. англ.
6. Msila V. School Leaders and the Pursuit of Effectiveness: Envisioning Schools that Endure Change // 11th International Conference on Education and New Learning Technologies. – 2019. – P. 2314–2320. – DOI: 10.21125/edulearn.2019.0629. – URL: <https://library.iated.org/view/MSILA2019SCH> (дата обращения: 01.02.2021).

UDK 378.4

МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПАРТНЁРСТВА КАК ФАКТОР ИННОВАЦИЙ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Рахимова Зарина

магистрант Университета Пучон в г.Ташкент

Аннотация. В статье рассматривается роль международных партнёрств как ключевого фактора, способствующего инновациям в высшем образовании. В условиях глобализации и стремительного развития технологий, университеты сталкиваются с необходимостью адаптации своих образовательных программ и методов обучения к новым требованиям рынка труда. Международное сотрудничество позволяет обмениваться знаниями, опытом и ресурсами, что ведёт к повышению качества образовательных услуг и развитию новых подходов к обучению. Подчёркивается значимость международных связей для повышения конкурентоспособности вузов. Также приводятся рекомендации для разработки стратегий по укреплению международного партнёрства в высшем образовании, способствующие дальнейшему развитию инновационных практик и улучшению образовательных результатов.

Ключевые слова: высшее образование, международные партнёрства, инновации, управленческая стратегия, конкурентоспособность.

Abstract. The article examines the role of international partnerships as a key factor promoting innovation in higher education. In the context of globalization and the rapid development of technology, universities are faced with the need to adapt their educational programs and teaching methods to the new demands of the labor market. International cooperation allows the exchange of

knowledge, experience and resources, which leads to improved quality of educational services and the development of new approaches to learning. The importance of international relations for increasing the competitiveness of universities is emphasized. Recommendations are also provided for developing strategies to strengthen international partnerships in higher education, contributing to the further development of innovative practices and improving educational outcomes.

Keywords: higher education, international partnerships, innovation, management strategy, competitiveness.

В условиях глобализации высшее образование сталкивается с новыми вызовами и возможностями, требующими адаптации учебных заведений. Международные партнёрства становятся ключевым фактором инноваций и развития образовательных программ. Взаимодействие университетов, исследовательских институтов и бизнеса на международном уровне способствует обмену знаниями, опытом и ресурсами, формируя новые образовательные стандарты и технологии.

Современные экономические и социальные реалии требуют от выпускников не только глубоких знаний, но и способности работать в многонациональных командах, адаптироваться к культурным различиям и применять инновационные подходы. Международные партнёрства представляют студентам уникальные возможности для получения международного опыта, участия в исследованиях и стажировках, повышая их конкурентоспособность на рынке труда.

Такие партнёрства способствуют развитию науки и создают междисциплинарные исследовательские группы, реализуя международные проекты, ускоряя инновации. "... Само время требует дальнейшего развития научного сотрудничества с ведущими мировыми институтами, университетами, научными центрами и академиями наук" - подчеркнул Президент Узбекистана Ш.М. Мирзиёев [1]. Успешное международное сотрудничество требует стратегического планирования, ресурсного обеспечения и гибкости в обучении.

Исследование роли международных партнёрств в контексте глобализации и инновациях помогает понять, как образовательные учреждения могут эффективно адаптироваться к новым условиям и способствовать развитию общества в целом.

С начала 21 века наблюдается значительное увеличение числа международных образовательных программ и партнёрств. Университеты по всему миру стремятся расширить свои горизонты через сотрудничество с зарубежными учреждениями. Развитие технологий, особенно интернета, открыло новые возможности для дистанционного обучения и виртуального обмена. Это позволило создавать гибкие формы сотрудничества, такие как онлайн курсы и вебинары, которые объединяют студентов из разных стран.

Множество международных организаций и фондов, таких как Всемирный банк и Европейский Союз, активно поддерживают проекты по созданию образовательных партнёрств, обеспечивая их устойчивость.

